



MILLIY ARMIYA – DINA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



**BIZNI SINOVLAR EMAS,
IRODAMIZ KUCHAYTIRADI!**



IJTIMOY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 30-YANVAR
№5 (3171)



Ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni

Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi yillarda milliy armiyamiz davlatimiz mustaqilligi, tinchligi va barqaror taraqqiyotining eng ishonchli kafolati sifatida tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy qurol-yarog'lar, ilg'or harbiy texnika va puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz nafaqat mamlakat xavfsizligini ta'minlash, balki xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilishdek muqaddas vazifani sharafla ado etmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda sohani tubdan isloh qilish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun munosib sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ortga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan yillarda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Birgina misol, qo'shinlarda yangi taktik usullar joriy etilib, mutaxassislar tayyorlash markazlari tashkil etildi.

Armiyani raqamlashtirish bo'yicha boshlangan ishlar natijasida axborot xavfsizligi, boshqaruv va ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

E'tiborlisi, o'tgan yili davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta'lim tizimi tubdan yangilandi va bu yo'nalishda keng ko'lamli, strategik ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirildi. Xususan, zamonaviy talablar asosida malakali professor-o'qituvchi, tajribali, yuqori salohiyatli harbiy mutaxassislardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Ushbu ta'lim dargohida o'quv jarayoni ilg'or xalqaro tajribalarga tayangan holda qayta shakllantirilib, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari, virtual trenajyorlar hamda zamonaviy baholash va monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etildi.

Shuningdek, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Qurultiqdagi qo'shinlar institutida tahsil olayotgan kursantlar uchun "Mafkuraviy poligon" va "Raqamli poligon" tashkil etildi. Bunda dars jarayonlari harbiy tarix bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi va kursantlarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va mafkuraviy tahdidlarga qarshi ongli yondashuv shakllantiriladi.

"Mafkuraviy poligon" orqali yosh harbiylar turli g'oyaviy xurujlar, axborot ta'siri va zamonaviy mafkuraviy kurash usullarini chuqur o'rganib, ularga nisbatan mustahkam immunitet hosil qiladi. "Raqamli poligon" esa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, simulyatsiya va raqamli modellashtirish asosida tashkil etilgan bo'lib, kursantlarga jang sharoitiga yaqin muhitda qaror qabul qilish, raqamli tahlil va tezkor fikr yuritish ko'nikmalarini oshirish imkonini beradi.

Natijada ta'lim jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mashg'ulotlar orqali kursantlarning kasbiy mahorati, ma'naviy-ruhiy barqarorligi va Vatanga sadoqat tuyg'ulari yanada mustahkamlanadi.

Mazkur yangiliklar harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'taribgina qolmay, yoshlarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda zamonaviy fikrlash,

tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Amaliy mashg'ulotlar va nazariyaning uyg'unligi asosida tayyorlanayotgan harbiy mutaxassislar bugungi kun tahdidlarini teran anglaydigan, zamonaviy jang sharoitida ishonch bilan harakat qila oladigan kadrlar sifatida voyaga yetmoqda.

Ayni paytda harbiy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yoshlar ongida Vatani taqdiriga daxldorlik hissin kuchaytirib, yurtga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va davlat ramzlariga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlamoqda. Zero harbiy ta'lim faqatgina qurol-aslahalar yoki jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, avvalo yuksak ma'naviyat, qat'iy iroda va vatanparvarlik ruhini shakllantirishni maqsad qiladi.


Shuningdek, yaratilgan shart-sharoitlar yosh avlod uchun o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini kengaytirmoqda. Harbiy ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish orqali yoshlar zamon bilan hamnafas bo'lib, jahon miqyosida raqobatbardosh bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqda.

Eng muhimi, bunday keng ko'lamli islohotlar natijasida tarbiyalanayotgan yoshlar nafaqat kasbiy jihatdan yetuk harbiy mutaxassis, balki Vatani taqdiriga befarq bo'lmagan, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi, tinchlik va barqarorlikni eng oliy qadriyat deb biladigan haqiqiy vatanparvar shaxslar sifatida kamol topmoqda. Bu esa kelajakda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash, milliy xavfsizlikni ishonchli ta'minlash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tizimda shuncha o'zgarishlar qilindi, armiyamizning jangovar salohiyati oshib, qo'shinlar so'nggi rusumdagi texnika bilan ta'minlandi deya bir joyda qotib qolingani yo'q. Aksincha, yildan yilga milliy armiyamiz kuch-qudrati mustahkamlanib, harbiy xizmatchilarga, ayniqsa muddatli harbiy xizmatchilarga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Ularning ijtimoiy himoyasi, xizmat sharoiti, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi va kasbiy salohiyatini oshirish masalalari davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham ana shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar chuqur tahlil qilinib, zamonaviy tahdid va xatarlarga munosib javob berish, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini yanada oshirish, harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda yoshlar orasida vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

MILLIY ARMIYA



Kichik serijant Ixtiyorjon MAMAJONOV

YANGI O'ZBEKISTON TAYANCHI



kirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test ballariga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinishini, xususi sektorida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to'lab berilishini aytib o'tdi.

Prezidentimiz tomonidan yaratilayotgan mana shunday imkoniyatlar yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'ulari oshishiga hamda mamlakat taqdiriga befarq bo'lmagan, vatanparvarlar yetishib chiqishiga va mustaqil fikrlaydigan, yurt ravnaqi yo'lida mas'uliyat bilan harakat qiladigan fidoyi avlod shakllanishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa, bunday kompleks yondashuv harbiy xizmatni faqat majburiyat sifatida emas, balki yoshlar uchun hayot maktabi, shaxsiy va kasbiy kamol topish bosqichi sifatida namoyon bo'ldi. Muddatli harbiy xizmatni sidqidildan o'tab qaytgan yoshlar jamiyatda o'z o'rini topishi, bilim va tajribasini amalda qo'llashi uchun yaratilayotgan sharoitlar, o'z navbatida, armiya nufuzini oshirish, harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda yoshlar orasida Vatanga sadoqat, vatanparvarlik, fidoyilik va mas'uliyat tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar faqat moddiy-texnik ta'minot yoki ijtimoiy imtiyozlar bilan cheklanib qolmasdan, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga ham qaratilgan.

Umuman olganda, bugun mamlakatimizda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar milliy armiyani yanada kuchli, zamonaviy va xalqchil tizimga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Harbiy xizmatga bo'lgan yondashuvning tubdan yangilanishi, yoshlarga yaratilayotgan ta'limiy, ijtimoiy va kasbiy imkoniyatlar Qurolli Kuchlarning jamiyat hayotidagi nufuzini yanada oshirmoqda. Eng muhimi, mazkur islohotlar orqali harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlar nafaqat Vatan himoyachisi, balki o'z hayot yo'lini aniq belgilay oladigan, mas'uliyatli va faol fuqaro sifatida shakllanmoqda.

Shubhasiz, Prezidentimiz rahbarligida sohada amalga oshirilayotgan shu kabi tizimli islohotlar mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash bilan birga jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadlarga xizmat qiladi.

Milliy armiyaning jangovar shayligi, zamonaviy texnika va ilg'or bilimlarga tayanadigan kadrlar bilan ta'minlanishi, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi va ma'naviy kamolotiga berilayotgan yuksak e'tibor Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Eng muhimi, harbiy xizmatni o'tagan yoshlarning hayotda munosib o'rin egallashi, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashashi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi orqali mamlakatimiz kelajagi yanada ishonchli va mustahkam bo'lib boradi. Ana shunday yetuk, fidoyi va vatanparvar avlod esa O'zbekistonning tinchligi, xavfsizligi hamda ravnaqini ta'minlaydigan eng katta kuch sifatida namoyon bo'ladi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**

Jumladan, armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, harbiy qismlardagi asosiy yo'nalish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo'yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqilishi belgilandi. Unga ko'ra, dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o'tkazilib, ularga kasb sertifikati beriladi.

Har yili saralangan askarlar "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" dasturlari doirasida o'qitiladi.

Shuningdek, askarlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratilib, test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganlar talabalikka qabul qilinadi va muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishni davom ettirishi ma'lum qilindi.

Ayni jarayonda harbiy xizmatchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini boyitish va intellektual salohiyatini oshirishda kitobxonlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois joriy yilda barcha harbiy qism va muassasalar jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanishi belgilandi. Buning natijasida askarlar bo'sh vaqtlaridan vaqtdan unumli foydalanib, ma'naviy ozuqa olishi, fikrlash doirasini kengaytirishi va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishiga zamin yaratiladi.

Shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiyga yo'naltirilgan maktab-litsey o'quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o'rtasida Oliy Bosh Qo'mondon sovrini uchun kitobxonlik tanlovining yo'lga qo'yilishi belgilandi. Tanlovning okrug, qo'mondonlik, vazirlik hamda Oliy Bosh Qo'mondon bosqichlarida g'olib va sovrindor bo'lgan askarlarning muddatli harbiy xizmati bir oyga qisqartirib berilishi aytiladi.

Bu kabi rag'batlantirishlar harbiy xizmatchilarning bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishiga, o'z ustida muntazam ishlashiga hamda harbiy xizmatni ilm-ma'rifat bilan uyg'un holda olib borishiga xizmat qiladi. Natijada Qurolli Kuchlar safida bilimli, tafakkuri keng, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi kuchli bo'lgan zamonaviy harbiy kadrlar shakllanadi.

Shu bilan birga, yig'ilishda armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikati olish xarajatlari qoplab berilishi ma'lum qilindi. Agar ular oliygohlarga kontraktga kirs, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ham alohida imtiyozlar yaratilishiga e'tibor qaratdi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatining 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga

Bugunimiz qahramonlari

SADOQAT BILAN O‘TILAYOTGAN YO‘L

Odamlarni ko‘p ham maqtayvermayman. Tabiatim shunaqa. Kimningdir kamchiligini ko‘rsam, shartta yuziga aytaman. Yutug‘ini eshitsam, qalbim ravshanlashadi. Ammo buni so‘zga chiqarib bera olishim qiyin. Negadir avval insonlar haqida ocherk yozmaganman. Bunga alohida iqtidor zarur, deb bilganman. O‘zi nima haqida gapirmoqchi bu, deyapsizmi? Keling, yaxshisi, galdagi maqolamiz mavzusini ochiqalay.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan davlatimiz rahbari tomonidan bir guruh soha xodimlari yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular orasida Markaziy harbiy okrug harbiy qism komandiri podpolkovnik Sardor Vapayev ham bor. U “Mardlik” ordeniga munosib topildi. Davlat mukofotiga loyiq ko‘rilganlar haqida har yili televideniya turli teleocherklar tayyorlanadi. Bu gal ham mukofotning yangi sohiblari faoliyatini yoritish maqsadida Markaziy harbiy okrug tomon xizmat safariga jo‘nadik. Yo‘l-yo‘lakay hamkasbim bilan qilinajak ishlar rejasini pishitib ketdik.

Harbiy qism hududiga kirar ekanmiz, tanish chehra biz tomon kelayotganiga ko‘zim tushdi. Podpolkovnik Mahkamov. Janubda hamma uni shunday ataydi.

– Esladingizmi meni? Harbiy qism hududida rosa siz bilan



suhbatlashgandik.

Podpolkovnik Qosim Mahkamovni ilk marotaba janubda xizmat safari yuzasidan yurgan kezlarimda uchratganman. Esimda, andak baland bo‘yli, gavalid bu inson o‘zining gapga ustomonligi bilan yodimda qolgan.

– Xizmat faoliyatim markazga ko‘chdi, – gapida davom etdi u. – Chala qolgan suhbatimizni endi shu yerda davom ettiramiz. Hozir komandirimizning xonadoniga ketayotgan edim. Xorazmdan ota-onasi kelibdi. Oilaviy bordi-keldimiz bor-da. Komandir sizlarni ham olib borishimni so‘radi. Teleocherkni oila davrasida olasizlar. Ma‘qulmi?

Xonadonga borganimizda, butun oila dasturxon atrofida jamuljam edi. Uy ichida samimiylilik, osoyishtalik sezilib turardi.

– Toshkentdan keldinglarmi? – so‘radi otaxon sinchkov nigohda. So‘ng bir zum sukut saqlab, kamtarlik bilan davom etdi: – Bolam, men intervyu beradigan odam emasman.

Nima deyman axir? Farzandlarimizni ulg‘aytirdik, o‘qitdik. Bugun el-yurtga foydasi tegadigan darajaga yetishdi. Yana nima ham deya olaman?

Umr yo‘lining tirik guvohi – Rajabboy otaning peshonasidagi chuqur-chuqur ajinlar yillar davomida o‘ylangan fikrlar va ko‘rilgan kunlarning izidek edi. Oqtoshday oqarib ketgan qoshlar ostida hanuz ziyoratlikni yo‘qotmagan ko‘zlar – bu nigoh ko‘pni ko‘rgan, kam gapirib, ko‘p anglagan odamnikidek.

Otaxon nigohini bir dam dasturxon atrofida o‘tirganlarga qaratdi. Ko‘zlarida shukronalik hissi yilt etdi. So‘ng kulimsirab:

– Yaxshisi, buvingizdan so‘ranglar. Bu uyning gapini ham, hikoyasini ham u aytib beradi.

Rajabboy ota kichik nevarasini tizzasiga olib erkalarikan, bolaning kichkina boshi ko‘ksiga suyanib, oppoq soqli yonoqlariga mayin tegib, uni kuldirardi.

– Muddatli harbiy xizmatdan kelishi bilanoq ofitser bo‘laman, deb turib



oldi, – deya gap boshladi Muyassar ona. – “Ona, armiyada bari boshqacha. Mas‘uliyat boshqacha, uni gardaningga olish boshqacha”, deb tinmasdi. Oilada to‘ng‘ich farzand bo‘lgani sabablidir, ehtimol, Sardor bolalikdan mas‘uliyatni doimo o‘z bo‘yniga olishga harakat qilib o‘rgangan. Ota-ona uchun farzand kamolidan ortiq baxt yo‘q. Egnida harbiy libosni birinchi marta ko‘rganimda sevinchdan ko‘zimga yosh kelgandi. To‘ng‘ichim faqat o‘zi harbiy bo‘lmadi. Yonida ukasini ham yelkadosh tutdi. Bir vaqtda kursant bo‘ldi, bir vaqtda xizmatga kirishdi. Hozirda ikkita podpolkovnikning onasiman.

Ismlar borasida gapirilganda xalqimiz orasida “Ismi jismiga mos ekan”, degan ibora tez-tez qulog‘imizga chalinadi. Hayotning chigal so‘qmoqlari jismni ismga moslashtirsa, ne ajab?!

– Uning xizmat faoliyati qat‘iy tartib, intizom va doimiy tayyorgarlik bilan o‘tadi, – so‘z boshladi podpolkovnik Qosim Mahkamov onaxonning fikrini

tasdiqlash ohangida. – Komandir buyrug‘i – bu, avvalo, uning o‘z-o‘ziga yuklagan mas‘uliyati. Chunki har bir vazifa ortida inson taqdiri, qarorida esa yurt tinchligi turadi. Chin ofitser esa mas‘uliyatni bo‘yniga oladi.

O‘rtaga yana sukunat cho‘kdi. Bir dam o‘ychan nigohda tikilib qoldi, so‘ng yana gapida davom etdi:

– Ordenni ko‘ksingga taqqaning bilan mard yoki ulug‘ inson bo‘lib



qolmayсан. Ayrim lahzalarda amalga oshirgan xatti-harakatlaring seni jasoratli ko‘rsatishi mumkin, lekin mardlik bu umr bo‘yi jasoratga qo‘l urish demakdir. Komandirimiz har bir qarorni shoshilmasdan, lekin qat‘iyat bilan qabul qiladi. Mashg‘ulotda ham, kundalik xizmatda ham shaxsiy tarkibdan nimani talab qilsa, o‘zi undan ko‘prog‘ini bajaradi.

O‘rtaga yana jimlik cho‘kdi.

Hech kimning fikridan chalg‘itishni istamagan Sardor aka o‘z o‘ylarini gapirishga og‘iz juftladi, lekin so‘z yana lablarida to‘xtadi. Biroz sukunatdan so‘ng fikrlarini asta-sekin bayon eta boshladi:

– Inson buyruq bilan emas, ma‘no bilan yashaydi. Bugun kimdir seni komandir deb hurmat qilsa, ertaga inson sifatida eslab qolishi muhimroq. Shuning uchun har bir ishda inson avvalo vijdoni oldida halol bo‘lishga harakat qilmog‘i darkor.

Oliy harbiy ta‘lim muassasasi menga faqat bilim emas, qaror qabul qilish, javobgarlikni zimmaga olishni o‘rgatdi. Tajribali ofitser ustozlarimizning o‘gitlaridan har bir buyruq ortida inson taqdiri borligini angladim.

Qahramonimiz oliy harbiy ta‘lim muassasasida olgan tajribalari uning kelgusi faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini belgilab berganini aytar ekan, hozirgi kunda armiyaning kelajagi hamda imiji yetishib chiqayotgan yosh ofitserlarning harbiy hayotga bo‘lgan qarashlarini



shakllantirishga bevosita bog‘liqligini ham ta‘kidlaydi:

– Chunki har bir kursant bu safda turar ekan, nafaqat qurol tutishni, balki sabrni, mas‘uliyatni, Vatan qadrini o‘rganadi.

Oliy harbiy ta‘lim muassasasini tamomlagandan so‘ng Sardor Vapayev turli garnizonlarda xizmat qildi. Ba‘zan chekka hududlarda, ba‘zan esa murakkab sharoitlarda bo‘ldi.

– Xizmatda oson yo‘l bo‘lmaydi. Ba‘zan tunlarni bedor o‘tkazishga majbur bo‘lasan. Yurt himoyasi bu hoy-u havas emas, balki yurak amridir! Eng muhimi – yurtga muhabbat! Ana shu muhabbat senga qanot bo‘ladi.

Albatta, samarali xizmat e‘tiborsiz qolmaydi. Mamlakatimiz mudofaa qudratini oshirish, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish, professional milliy armiyamizni shakllantirishdagi ibratli faoliyati uchun u Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan “Mardlik” ordeni bilan taqdirlandi.

– Mukofot – o‘tgan xizmat uchun emas, kelajak mas‘uliyati uchun beriladi. Harbiy uchun eng katta mukofot bu tinchlikni saqlash demakdir, – deb fikrini yakunlaydi qahramonimiz.

Vatan himoyasi – kasb emas, qasamyod. Bugun podpolkovnik Sardor Vapayev tajribali komandir, yosh ofitserlar uchun ustoz, Vatan oldidagi burchini sharafla bilan bajarayotgan fidoyi harbiydir. Uning hayot yo‘li shuni ko‘rsatadiki, chin mardlik sadoqat bilan bajarilgan xizmatda namoyon bo‘ladi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”**



Muallif suratga olgan

Batalyon taktik o'quvi

JANGOVAR

UYG'UNLIK SINOV

Bugungi globallashtiruv va murakkab harbiy-siyosiy vaziyat sharoitida Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi, shaxsiy tarkibning bilim va salohiyati, bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik hamda tezkorlik har qachongidan-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois harbiy xizmatchilarni zamonaviy jang talablariga mos ravishda tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish, real jang sharoitiga yaqin vaziyatlarda sinovdan o'tkazish maqsadida o'tkazilayotgan batalyon taktik o'quvlari Vatan mudofaasini ta'minlashda muhim bo'g'in sanaladi.



Ana shunday keng ko'lamli va mas'uliyatli mashg'ulotlardan biri Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi "Forish" tog' dala-o'quv maydonida bo'lib o'tdi. Tog'li hududning murakkab relyefi va keskin iqlim sharoitida tashkil etilgan mashg'ulotlarda harbiy xizmatchilar nafaqat jismoniy va jangovar tayyorgarligini, balki ruhiy barqarorligi, mustahkam irodasi va Vatanga sadoqatini yana bir bor namoyon etdi.

Mashg'ulot rejasiga muvofiq, barcha bo'linmalar qisqa muddat ichida jangovar shay holatga keltirildi. Shaxsiy tarkib kolonna tartibida "Forish" tog' poligoni hududiga marshni amalga oshirdi. Marsh davomida harbiy xizmatchilar yo'l-yo'lakay turli shartli to'siqlarni yengib o'tish, texnikalar harakatini muvofiqlashtirish, xavfsizlik choralariga qat'iy rioya etish bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini amalda namoyon etdi.

Ma'lumki, real jang sharoitida frontorti ta'minoti muhim hisoblanadi. Shu bois mazkur taktik o'quvda ham ushbu masalaga

ustuvor ahamiyat qaratildi. Dastlab aloqa ta'minoti tizimi ishga tushirilib, bo'linmalar o'rtasida uzluksiz va barqaror axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi. Bu esa boshqaruvning aniq va samarali olib borilishini ta'minladi. Shuningdek, dala sharoitida tibbiyot punkti tashkil etilib, shaxsiy tarkibga tezkor tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Psixologik xizmat mutaxassislari tomonidan jangovar vaziyatlarda ruhiy barqarorlikni saqlash, stressga qarshi kurashish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Jangovar texnikalarning uzluksiz va soz holatda bo'lishi maqsadida texnik xizmat ko'rsatish punktlari tashkil etilib, mutaxassislari tomonidan qurol-aslaha va texnikalar holati sinchiklab tekshirildi. Bundan tashqari, ko'chma dala oshxonasida shaxsiy tarkibning o'z vaqtida va sifatli ovqatlanishi ta'minlandi.

Mashg'ulotlar davomida radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza bo'yicha ham qator tadbirlar amalga oshirildi. Shaxsiy tarkib maxsus himoya

vositalaridan foydalanish, shartli zararlangan hududda harakatlanish, zararsizlantirish choralarini ko'rish bo'yicha o'z mahoratini oshirdi. Hududning relyefi, iqlim sharoiti va taktik vaziyati bo'yicha bo'linmalar joylashuvi qayta ko'rib chiqildi. Belgilangan nishonlarni aniqlash, razvedka olib borish hamda ularni yo'q qilish bo'yicha aniq va puxta jangovar rejalar ishlab chiqildi. Har bir bo'linma o'ziga yuklatilgan vazifani chuqur anglagan holda harakat qildi.

Mashg'ulotlarning eng mas'uliyatli bosqichlaridan biri tungi otish mashg'ulotlari bo'ldi. Ufq qorayib, ko'rish imkoniyati cheklangan sharoitda harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi yana bir bor sinovdan o'tkazildi. Dastlab minomyot batareyalari tomonidan belgilangan nishonlarga aniq zarbalar berildi. Shundan so'ng zirhli jangovar texnikalar va boshqa o't ochish vositalari ishga tushirilib, shartli dushman kuchlari ketma-ket yo'q qilindi. Otishlar davomida aniqlik, tezkorlik va o'zaro muvofiqlik yuqori darajada ta'minlandi.

Keyingi bosqichda barcha bo'linmalar ishtirokida muvofiqlashtirilgan qarshi hujum tashkil etildi. Harbiy xizmatchilar murakkab sharoitga qaramay, qat'iyat va jasorat bilan harakat qilib, belgilangan jangovar topshiriqlarni to'liq va muvaffaqiyatli bajardi. Mashg'ulotlar davomida shaxsiy tarkibning intizomi, mas'uliyati va Vatanga sadoqati yaqqol namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, "Forish" tog' dala-o'quv maydonida o'tkazilgan batalyon taktik o'quvi bo'linmalarining birgalikda jang olib borish qobiliyatini yanada mustahkamlash, zamonaviy harbiy san'at talablarini chuqur o'zlashtirish, harbiy xizmatchilarning bilim, tajriba, kuch va salohiyatini to'la namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh
mutaxassisi



“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi



LOYIHADA YANGI YONDASHUV

So‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash O‘zbekiston davlat siyosatida markaziy masalalardan biriga aylandi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan yangilangan loyihasi esa bu sohadagi yondashuvlar bosqichma-bosqich takomillashayotganini ko‘rsatadi. Mazkur hujjatni umumiy mantiqiy tizim sifatida tahlil qilganda, gap yangi tahrirda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini aniqlashtirish va chuqurlashtirish haqida ketayotgani ko‘rinadi.

Yangilangan strategiya loyihasida korrupsiyaga qarshi kurash davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘langan vazifa sifatida qaraladi. Xususan, **“Transparency International”** tomonidan e‘lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekistonning kamida 20 pog‘onaga o‘sishi maqsad qilib belgilangan. Bu ko‘rsatkich xalqaro baholash vositasi sifatida saqlab qolingani bo‘lsa-da, u endilikda mustaqil maqsad emas, balki davlat ichida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasini aks ettiruvchi indikator sifatida talqin qilinadi. Shu orqali e‘tibor reytingning o‘ziga emas, balki uni

shakllantiradigan institutsional omillarga qaratilmoqda.

Shu ma’noda davlat xaridlari sohasiga oid normalar yangi loyihada sezilarli darajada aniqlashtirilgan. Xarid ma’lumotlarini ochiq formatda joylashtirish ulushini bosqichma-bosqich **100 foizga** yetkazish, raqobatsiz usullarda amalga oshirilgan xaridlar ulushini **20 foizdan** oshirmaslik kabi talablar korrupsiya xavfini kamaytirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar sifatida belgilangan. Bu yondashuv davlat mablag‘larini sarflash jarayonida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish uchun **institutsional shart-sharoit yaratishga** qaratilgan.

Qonunchilik sohasida ham aniq va tizimli yondashuv kuzatiladi.

Yangilangan strategiya loyihasiga muvofiq, barcha normativ-huquqiy hujjatlar korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilishi majburiy talab sifatida belgilab qo‘yilgan. Bu korrupsiyaning faqat oqibatlariga emas, balki uning huquqiy asoslariga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi hamda qaror qabul qilish jarayonlarida subyektivlik xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hujjatda korrupsiya davlat boshqaruvi jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf sifatida qaraladi va uni kamaytirish uchun aynan shu jarayonlarni tartibga solishga urg‘u beriladi. Bu holat korrupsiyaga qarshi

kurashni faqat jazo yoki nazorat doirasida emas, balki **boshqaruv sifatini oshirish vazifasi** sifatida ko‘rishga olib keladi.


Albatta, ushbu yondashuvlar ijtimoiy samarani avtomatik ravishda ta’minlaydi, deb aytish erta. Biroq strategiyada belgilangan mexanizmlar to‘liq va izchil amalga oshirilgan taqdirda davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligi oshishi, qaror qabul qilish jarayonlarining prognoz qilinadigan bo‘lishi va ishonch muhitining shakllanishi uchun mustahkam asos yaratilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yangilanayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi korrupsiyaga qarshi kurashda belgilangan yo‘nalishlarni yanada aniq, o‘lchanadigan va institutsional jihatdan mustahkam shaklga keltirishga qaratilgan. Endi e’tibor asosan hujjatda belgilangan maqsad va indikatorlarning qabul qilinishiga emas, balki ularning amaliyotda qanday qo‘llanilishi va qay darajada izchil ijro etilishiga qaratilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur strategiya korrupsiyaga qarshi kurashish islohotlarini tizimli davlat siyosatiga bosqichma-bosqich o‘tkazishga qaratilgan muhim qadam sifatida qaralishi mumkin.

Nilufar DONIYORXODJAYEVA,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi ijrochi direktori
o‘rinbosari

DAVLAT BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISH



So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar muayyan natijalarni berdi. Biroq shu bilan birga, jamiyat hayotida yangi vazifalar va yangi ehtiyojlar shakllanmoqda. Shu sababli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini mavjud real sharoit, aholining ehtiyojlari hamda o‘zgarib borayotgan global jarayonlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruratga aylanmoqda. Takomillashayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadi mamlakatning o‘rta muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini aholi ehtiyojlariga mos holda takomillashtirish, davlat idoralari faoliyatini xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan, natijaga asoslangan va hisobdor tizim asosida izchil davom ettirishdan iborat.

Strategiyada davlat xizmatlarini transformatsiya qilish masalasi markaziy o‘rin tutadi. Xususan, kompozit va proaktiv xizmatlar ko‘lamini kengaytirish orqali fuqarolarning davlat organlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaatlarini kamaytirish, xizmatlarni avtomatik tarzda taqdim etishga o‘tish maqsad qilingan. Agar amaldagi strategiyada bunday xizmatlar sonini **40 taga** yetkazish belgilangan bo‘lsa, yangi tahrirda ushbu ko‘rsatkichni **400 tagacha** oshirish ko‘zda tutilgan. Bu, o‘z navbatida, ma’lumotlar bazalari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish va davlat xizmatlarini inson omilidan mustaqil holda ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligini oshirishda ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni qisqartirish ham muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Amaldagi strategiyada **300 taga** yaqin tartib-taomilni soddalashtirish rejalashtirilgan bo‘lsa, loyiha

doirasida bu ko‘rsatkich **500 taga** yaqin tartib-taomilni qamrab olishi nazarda tutilmoqda. Bu xizmatlar ko‘rsatish muddatlarini qisqartirish, davlat organlari faoliyatidagi takrorlanuvchi jarayonlarni bartaraf etish hamda fuqarolar va tadbirkorlar uchun ma’muriy yukni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish, aholi muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va samarali hal etish maqsadida murojaatlarning kamida **80 foizini** mahalliy darajada qanoatlantirish belgilab qo‘yilgan. Bu, eng avvalo, fuqarolarni qiynayotgan masalalarni joyida hal etish imkonini beradi. Natijada murojaatlarni yuqori tashkilotlarga chiqmay, mahalla, tuman yoki shahar darajasida yechim topish amaliyoti kengayadi. Bu esa xalq va davlat o‘rtasida ochiq va samarali muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Takomillashayotgan **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasida aholining davlat boshqaruvidagi ishtirokini

kuchaytirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. “Xalq nazorati” portali orqali jamoatchilik nazoratini har bir hududda **100 foiz** joriy etish aholining mahalliy muammolar bo‘yicha murojaat va takliflarini raqamli tarzda yuborish, shuningdek ularning ko‘rib chiqilishi ustidan nazoratni ta’minlash imkonini beradi. Bu mexanizm davlat organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni institutsional darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasining yangilanayotgan tahriri xizmatlar sifatini oshirish, ma’muriy jarayonlarni optimallashtirish va aholi bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa strategiyaning amaliy va natijaga yo‘naltirilgan xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Inobat XAKIMOVA,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi bosh mutaxassisi

Yangilanayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi loyihasida davlat boshqaruvi tizimini aholi manfaatlariga xizmat qiladigan, ochiq, raqamlashgan va samarali mexanizmga aylantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Strategiya loyihasida davlat xizmatlari, raqamli infratuzilma va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsad va ko‘rsatkichlar belgilangan.

JAMIYAT RAVNAQINING ASOSI —

HALOLLIK

XXI asr keskin burilishlar davri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv, iqlim o'zgarishlari, ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt, madaniy almashuvlar har bir jamiyat hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlash muammosi bugungi kunning eng muhim, dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Negaki, uning barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan o'zaro ishonch, adolat, halollik kabi qadriyatlarga bog'liqdir.

Milliy urf-odatlariga sodiqlik, samimiyat, ochiqlik, mas'uliyat kabi fazilatlar jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan ta'lim, iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, iqtisodiy sohaning bir bo'g'inini oladigan bo'lsak, tadbirkor sherigini, investorni aldama, sotuvchi tarozidan urmasa, shuning o'ziyoq o'zaro ishonch va hurmatni oshiradi.

Halollik ichki, axloqiy fazilat bo'lib, u rostgo'ylik, vijdonlilik, adolatparvarlik va mas'uliyat kabi sifatlarni qamrab oladi. U bilan qalb xotirjam bo'ladi, jamiyat osoyish topadi. Halollik ustuvor bo'lgan joyda halovat, fayz-baraka bo'ladi.

Islom dini halol rizq topishni targ'ib etadi va bu eng to'g'ri yo'ldir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Halol rizq izlash har bir musulmon uchun vojibdir”**, deganlar (*Imom Tabaroniy rivoyati*). Afsuski, bugun tijoratda ham, mansabda ham halollik tushunchasini chetga surib qo'yuvchilar yo'q emas. Undaylar katta mol-u davlatga ega bo'lishi mumkin, lekin rohatini ko'rmaydi. Chunki xotirjamligini yo'qotadi. Eshik “tiq” etishidan ham cho'chidi, fosh bo'lib qolishdan hadiksirab yashaydi.

Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **“Ey imon keltirganlar! Mol-mulklaringizni o'rtada nohaq (yo'llar) bilan yemangiz! O'zaro rozilik asosidagi tijorat bo'lsa, u bundan mustasno”** (*Niso surasi, 29-oyat*). Ushbu oyat insonlarni o'zganing moliga ko'z olaytirishdan, rizqiga harom aralashtirishdan, nohaq yo'llar bilan boylik orttirishdan qaytarmoqda.

Jamiyatda halollik muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, unday inson, avvalo, o'z mehnati bilan yashashga intiladi. Qonun va axloqiy me'yorlarga amal qilib, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qiladi. Halollik insonni mustaqil fikrlashga, vijdonan qaror qabul qilishga undaydi.

Jamiyatning har bir sohasida halollik ustuvor bo'lsa, fuqarolar, avvalo, davlatga ishonch bilan qaraydi. O'zaro ijtimoiy munosabatlar shaffof bo'ladi, jamoatchilik nazorati samarali bo'ladi. Aksincha, halollik qadrsizlangan jamiyatda beqarorlik, ishonchsizlik va adolatsizlik kuchayadi.

Zamonaviy iqtisodiyot ham shaffoflik va halollik ustiga qurilgan bo'lib, halol raqobat, adolatli soliq tizimi va qonuniy tadbirkorlik iqtisodiy

barqarorlikni ta'minlaydi. Lekin jamiyatda halollik yo'qolsa, u yerda bu fazilatning ziddi bo'lgan korrupsiya avj oladi. Bu zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf soladigan eng katta ijtimoiy-iqtisodiy illatlardan biridir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda faqat huquqiy choralargina emas, balki ma'naviy yondashuv, odob va tarbiya ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bu borada halollik asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun insonda immunitet shakllangan bo'lishi kerak. Halollik immuniteti inson qalbiga biror dori yoki nina bilan emas, balki imon nuri orqali o'tib, uning vijdonini poklaydi. Bu esa umumiy ma'noda insoniylik tushunchasi bilan ifodalanadi.

Iymonli inson insofli bo'ladi. Bu fazilat ham jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning **“Insofi borning barakasi bor”** degan naqli bejiz paydo bo'lmagan.

Insofli odam yon-atrofida bo'layotgan yaxshi-yomon voqea-hodisalarga, yordamga

muhtoj insonlarning muammolarini bartaraf etishga befarq bo'lmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda, vijdoni tug'yonga keladi, qanday bo'lmasin, ularni bartaraf etishga harakat qiladi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sahobalaridan bo'lgan Ammor insof haqida bunday degan: **“Uch xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'ladi:**

- insof va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'allikda ham sadaqa berib turmoq.

Demak, insonning halol, vijdonli, insofli bo'lishi jamiyat islohiga xizmat qiladigan ichki axloqiy fazilat ekan.

Xulosa qilib aytganda, halollik zamonaviy jamiyatning mustahkam poydevori hisoblanadi. U shaxs kamoloti, ijtimoiy ishonch, iqtisodiy barqarorlik va huquqiy davlat qurilishining asosiy omilidir. Shunday ekan, har bir inson jamiyat ravnaqi uchun o'z vijdonini poklasa, har ishda “Yaratgan ko'rib turibdi-ku!” degan tushuncha bilan umr kechirsa, bunday jamiyat faqat va faqat rivojlanadi, yuksaladi.

Mashrab XIDIROV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi



Armiya – hayot maktabi



VATAN HIMOYASI — MUQADDAS BURCH!

Mudofaa vazirligiga qarashli Zangiota tumanidagi harbiy qism nafaqat mamlakat xavfsizligini ta'minlaydigan, balki yoshlarni zamonaviy kasb va bilimlarga tayyorlaydigan makon. Bir kunlik kuzatuv davomida askarlarning mashg'ulotlari, bilim olish jarayonlari va kelajak kasbiga tayyorgarlik bilan yaqindan tanishdik.

Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yigitlar safda qadam tashlarkan, ularning maqsad va sadoqatini sezish qiyinmas. Mashg'ulot rahbarining "O'ngga!" va "Qadam bos!" buyrug'i ostida jangovar qo'shiq bilan yurishni boshlagan yurt posbonlarining nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki jamoaviy intizom va mas'uliyati ham ancha shakllanganiga guvoh bo'ldik.

ZAMONAVIY TA'LIM VA OLIY TA'LIMGA TAYYORGARLIK

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Ilhomjon Abdurahobov:

– Bu yerda sinf xonalari va zamonaviy texnologiyalar orqali bilim olib, oliy ta'limga tayyorgarlik ko'rish imkoniga egaman.

Harbiy qismda sport va ma'muriy yo'nalishlardagi to'garaklar askarlarning kelajak kasbiga tayyorgarlik sifatida xizmat qiladi. Masalan, sportda yuqori natijaga erishgan askarlar rahbar sifatida to'garaklar faoliyatida ishtirok etadi. Bu ularning rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirib,



KASBIY TAYYORGARLIK

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Suhrob Shomilov:

– Armiyada xizmat qilish men uchun nafaqat Vatan tinchligiga hissa qo'shish, balki kelajakda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ham yaratdi.

Harbiy qismda askarlar nafaqat jangovar ko'nikmalarni, balki kasbiy bilimlarni ham egallaydi. Misol uchun, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha to'garaklarda ular motorni tekshirish, turli filtrlarni va moyni almashtirish kabi amaliy mashg'ulotlarni o'taydi. Bu ko'nikmalar armiyada faoliyat olib borish bilan birga kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Askarlar shu yo'l bilan nafaqat harbiy bilim, balki hayot va kasb uchun muhim ko'nikmalarni ham egallaydi.

Harbiy qismda oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun maxsus tayyorgarlik dasturlari yo'lga qo'yilgan. Askarlar haftada bir necha marotaba ingliz tili, matematika, biologiya va kimyo fanlaridan qo'shimcha darslar olishadi. Bu bilimlar ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, harbiy qismda kompyuter texnologiyalari, zamonaviy qurol va texnikadan foydalanish bo'yicha ham mashg'ulotlar olib boradi.

SPORT VA RAHBARLIK KO'NIKMALARI

Katta leytenant Ismoil Mehmonov:

– Harbiy qismda nafaqat amaliy va nazariy mashg'ulotlar, balki sport ko'nikmalarni egallash imkoniyatlari ham yaratilgan.

kelajakda ofitserlik va boshqaruv vazifalariga tayyorlaydi.

To'garaklar orasida shaxmat, shashka, futbol, badiiy gimnastika va ko'pkurash kabi sport turlari mavjud. Bu esa nafaqat jismoniy rivojlanish, balki strategik fikrlash va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

BARCHA SHAROITLAR ASKARLAR UCHUN

2019-yildan zamon talablari asosida qayta tashkil etilgan harbiy qismda askarlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan:

- 3 qavatli o'quv binolari va sinf xonalari;
- zamonaviy yotoqxonalar va oshxona;
- sport majmuasi va madaniyat markazi;
- 700 kishini sig'dira oladigan oshxona;



• avtomobillar va texnika uchun texnik xizmat ko'rsatish to'garaklari.

Bu imkoniyatlar askarlarni nafaqat Vatanni himoya qilishga, balki kasbiy va shaxsiy rivojlanishga ham tayyorlaydi.

Harbiy qism askarlar uchun nafaqat Vatanni himoya qilishga tayyorgarlik, balki kelajak kasbiga yo'naltirish, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Zamonaviy shart-sharoitlar va kasbiy tayyorgarlik dasturlari har bir askarni jismoniy, ma'naviy va professional jihatdan rivojlantirib, ularni hayot va kasb uchun tayyorlaydi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



Muallif suratga olgan

SARBALAND MAQSADLAR SARI

Muddatli harbiy xizmatga yo'l olgan o'g'lonlar ko'ksida ulug' niyat bo'lishi tayin. Avvalo, askarlik vazifasini puxta o'zlashtirish, harbiy quoldan foydalanish sir-asrorlarini, harbiy xizmat bilim va ko'nikmalarini egallash. Shuningdek, ilkidagi burchini talab darajasida o'tab, orzu qilgan kasbiga erishish uchun oliy ta'lim dargohiga o'qishga kirish.

Albatta, sarbaland orzular ro'yobi bilim va intilishni talab etadi. Bugun muddatli harbiy xizmat o'tayotgan oddiy askarlar uchun hayajonli damlar bir so'z bilan aytganda, g'alvir suvdan ko'tariladigan palla. Talaba bo'lish uchun tayanch bo'ladigan tavsiyanomaga kimlar ega bo'ladi? Buni vaqt ko'rsatadi. Ayni fursatda armiya maktabida toblanib, askarlik burchining so'nggi oylarini o'tayotgan posbon o'g'lonlarni suhbatga tortamiz.

YUKSAK MAQSAD OMADGA YETAKLAYDI



– Abdulhamid, xizmatimiz tugashiga bir oydan ziyod vaqt qoldi, hademay yaqinlarimiz bag'riga qaytamiz. Kelajakda, albatta, do'st bo'lib qolamiz, shundaymi?!

– Albatta, – safdoshi Husniddin Qobiljonovning savoliga javob qaytardi oddiy askar Aliyev. – Armiyada birga xizmat qilgan askarlar eng yaqin do'stlar bo'lishini eshitganman. Komandirlarimiz ham askariy birodarlik haqida ko'p gapiradi. Biz ham ayrilmas do'stlar bo'lib qolamiz.

Darhaqiqat, harbiy xizmatning ilk damlaridan boshlab sinovlarda bir-biriga yaqindan yordam bergan, tayanch bo'lgan, Vatanga qasamyod onlarida bir safda turgan posbon o'g'lonlar armiya maktabida kechgan davrlarini unutmaydi. Ular hamma havas qiladigan darajada do'st bo'lib qolishadi. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Abdulhamid Aliyev ham suhbat avvalida safdoshlari Ali Imomov, Botirjon G'ofurov kabi bir qator do'stlariga urg'u berib o'tdi.

Bugun orzular ostonasida turgan posbon o'g'lonlarda sarbaland maqsad mujassam. Abdulhamidning ezgu niyatlaridan biri kelajakda mas'uliyatli soha sanalmish Vatan himoyachilari safida bo'lish.

Andijon viloyatining Izboskan tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Aliyev haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u yigitlik burchini namunali darajada o'tab kelayotgan posbonlardan biri. Xobbisi shaxmat bo'lgan Abdulhamid ushbu yo'nalishda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritgan. Shaxmat bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan viloyat musobaqasida yuqori natijani qo'lga kiritib, respublika bosqichiga yo'llanma olgan. Harbiy xizmat davomida ham safdoshlari orasida shaxmatda yetakchi.

Eng asosiysi, oddiy askar Abdulhamid Aliyev oliy harbiy ta'lim dargohiga kirish uchun astoydil tayyorgarlik ko'rayotgan maqsadi ulug' posbonlardan biri. Bunday yigitlar istiqbolda mamlakatimiz rivojiga ulush qo'sha oladigan yetuk insonlar safida bo'lishi aniq. Zero yuksak maqsad va intilish, albatta, omadga yetaklaydi.

BO'LAJAK ARXITEKTOR



Muddatli harbiy xizmat o'tayotgan oddiy askarlarning har birini o'ziga xos ezgu niyat, orzu-maqsadi bor. Kimdir uchuvchi bo'lishni istasa, kimdir tadbirkor yoki chet tillar bo'yicha mutaxassis, yana kimdir shifokor... Ha, hayotda turli kasb-hunarlar ko'p. Barchasining o'z o'rnini va ahamiyati bor. Oddiy askar Behruz Abdusalomovning niyati esa arxitektor bo'lish.

Me'morlik qadim kasblardan biri. Ajdodlarimiz tomonidan ming yillar avval qurilgan inshootlarning ba'zilarini shu kunga qadar yetib kelganidan ham bilsak bo'ladi, ota-bobalarimiz binolar tarixini – loyihasini yaratishda katta bilim va tajribaga ega bo'lgan. Ushbu sohaga mehr qo'ygan Behruzning maqsadi qanday, eshitamiz:

– Zamon rivojlangani sari binolarning shakli, tuzilishi ham o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda bu ko'zga yaqqol tashlanadi. Yurtimizda ham kundan kunga zamonaviy turarjoylar va inshootlar qurilayotgani hayratga sazovordir. Men ham mana shu rivojlanishga hissa qo'shishni istayman. Orzum ushbu yo'nalishda oliygohda tahsil olib, baland-baland yangi uslubdagi osmono'par binolar loyihasini yaratish. Mening bu fikrga to'xtalishimda armiya maktabining salmoqli o'rnini bor. Negaki, komandirlarimiz tomonidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali nafaqat muddatli harbiy xizmat ko'nikmalarini o'zlashtirib bordik, balki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda mamlakatimiz rivojiga ulush qo'sha oladigan mas'ul insonlar bo'lishimiz borasida ham o'ziga xos saboqqa ega bo'ldik. Shu sabab safdoshlarimning barchasi o'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan. O'ylaymanki, harbiy xizmat davomida mustahkamlangan qat'iyat va intilish maqsadimiz ro'yobiga yetkazadi.

MERGANLIKDA ILG'ORLAR SAFIDA



Andijon shahridan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Abdulaziz Qurbonovning vazifasi o'qchi. U shaxsiy tarkib orasida mo'ljalga olish mashg'ulotlarida faolligi bilan ajralib turadi. O'rta qolgan yaqin bir yil davomida u o'z vazifasini namunali darajada bajarib kelmoqda, desak, xato qilmaymiz.

– Vazifamiz har doim hushyorlik va burchimizga qat'iy rioya qilishni talab etadi, – deydi oddiy askar Qurbonov. – Mashg'ulot va ko'nikmalar davomida ilkimizdagi majburiyatni belgilangan tartibda o'zlashtirib bordik. Komandirlarimizdan o'z vaqtida tanbeh, o'z o'rnida rag'bat oldik. Ayniqsa, guruh komandirimiz II darajali serjant Zohidjon Xudoyberdiyev vazifamizni puxta o'zlashtirishda har tomonlama yordam berdi. Bugun barchamiz o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkam, maqsadiga erishishga shay turgan posbonlar safidamiz.

Men muddatli harbiy xizmatga qadar oilamizga yordam berish uchun oshpazlik qilganman. Ayni fursatdagi maqsadim – harbiy xizmatni talab darajasida o'tab, yo'limga ko'z tikib turgan onam bag'riga yorug' yuz bilan qaytish. Oilada yolg'iz o'g'il bo'lganim uchun onajonim va ikki singlimga g'amxo'rlik qilish, mehr ko'rsatish va oilaga tayanch bo'lish mening farzandlik burchim. Kelajakda esa tadbirkor bo'lishni niyat qilganman.

Merganlikda ilg'or, xobbisi kipersport bo'lgan posbon yigitning orzulariga erishishi o'z qo'lida. Harbiy xizmatdagi farzandining yo'lga ko'z tikib turgan Saidaga opa kelajakda Abdulazizdek g'ayratli o'g'loni bilan faxrlanishiga ishonamiz.

“ALBATTA, ORZUMGA ERISHAMAN”



Bahrom ABDURAHIMOV suratga olgan.



Abduvali oilaning to'ng'ich farzandi. Odatda, ota-ona katta o'g'ilga katta umidlar bog'laydi, ukalari undan o'rnak olishini istaydi. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Abduvali Abdunabiyev ham mana shunday e'tibor ostida ulg'aydi. Uning yigitlik burchini o'tashga yo'l olgani ham yaqinlari uchun quvonchli kun bo'ldi. Negaki, bunday ishonchga sazovor bo'lish hamma yigitlarga ham nasib etmaydi. Shuningdek, armiya maktabi o'g'lonlar hayotida katta iz qoldirishi, kelajagi uchun katta ahamiyat kasb etishi barchaga ayon. Buning isbotini maqolamiz qahramonida ham kuzatish mumkin.

– Muddatli harbiy xizmatga saralash sinovlaridan o'tish uchun astoydil tayyorgarlik ko'rganman, – deydi Abduvali shu haqda so'z ketar ekan. – Salomatlikka e'tibor qaratganim, jismonan chiniqqanim posbonlar safida bo'lishimga zamin yaratdi. Askarlik xizmati davomida “burch” so'zining asl mohiyatini tushunib yetdim. Bu yigitlar zimmasidagi ulkan majburiyat, yuksak ma'suliyat ekanini his qildim. Harbiy xizmat davomida safdoshlarim bilan birga yigitlik burchimizni talab darajasida ado etishga intildik.

Men muddatli harbiy xizmatdan so'ng posbonlik burchimni kontrakt bo'yicha davom ettirmoqchiman. Qarorimdan ota-onam ham xursand bo'lishdi, niyatimni qo'llab-quvvatlashdi. Orzum kelajakda harbiy oliygohda o'qib, ofitserlar safida bo'lish. Umid qilamanki, astoydil tayyorgarlik ko'rsam, intilsam, albatta, niyatimga erishaman.

Ha, ezgu maqsad g'ayrat va intilishga yo'l ochadi. Intilganga tole yor, deb bejiz aytishmagan. Muddatli harbiy xizmatning oxirgi oylarini o'tayotgan Abduvali Abdunabiyev kabi qalbi yoniq askar o'g'lonlar erta kelib, Vatan ravnaqiga daxldor bo'lishiga ishonamiz. Zero ularda armiya maktabida toblangan kuchli iroda va o'ziga bo'lgan ishonch mujassam.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

ARMİYADA TA'LIM: YOSHLAR MUVAFFAQIYATI YO'LIDA

Harbiy xizmat yoshlar uchun nafaqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik maydoni, balki ularning kelajak kasbi va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar eshigidir.



Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutida **rahbar va yoshlar** uchrashuvi bo'lib o'tdi. Mudofaa vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida tashkil etilgan muloqotda asosiy e'tibor davlatimiz rahbarining joriy yil 13-yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan vazifalarga yo'naltirildi.

Tadbirida Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev, mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, O'zbekiston xalq shoiri, Mudofaa vazirligi Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzo, kursantlar, muddatli harbiy xizmatchilar, oliy harbiy ta'lim muassasasi ofitserlari, nuroniylar, shuningdek ma'naviy-ma'rifiy hamda ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi mutasaddi idoralar vakillari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida institutda askarlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, xususan kasb-hunar o'rgatish ustaxonalari, chet tillar va sun'iy intellekt darsxonalari faoliyati bilan

tanishildi. Uchrashuvda Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev yoshlar bilan samimiy muloqotga kirishdi. Hokim qayd etganidek, Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan bir qator dolzarb vazifalarga muvofiq, muddatli harbiy xizmat – faqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik emas, balki yoshlarimiz jamiyatda mustahkam o'rnini topishi uchun ularni mehnat bozoriga va mustaqil kasbga tayyorlash bosqichi sifatida tashkil etilmoqda. Jumladan, armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilayotir. Harbiy qismlardagi asosiy yo'nalish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo'yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqilyapti. Dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o'tkazilib, ularga kasb sertifikatini beriladi.

Har yili 5 ming askar saralab olinib, "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" dasturlari doirasida o'qitiladi. Askarlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida

harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishini boshlaydi. Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga kontrakt asosida kirsa, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi. Bundan tashqari, armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ham alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatining 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga kirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test ballariga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinadi. Xususi sektorida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to'lab beriladi.

Muloqot davomida viloyatdagi harbiy qismlar hamda texnikumlar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, tajribali va yuqori malakali o'qituvchilarni jalb etgan holda hunarli, bilimli va yuksak salohiyatga ega askarlarni tarbiyalash, shuningdek yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Tadbir yakunida muddatli harbiy xizmatni sharaflar va mas'uliyat bilan o'tayotgan, sadoqat namunasini ko'rsatayotgan askarlar munosib taqdirlandi. Xulosa qilib aytganda, muddatli harbiy xizmat yoshlarning shaxsiy rivoji va kasbiy salohiyatini oshirish, ularni jamiyatda faol, bilimli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda yurtimizning taraqqiyotiga hissa qo'shishga tayyorlaydi.

TAHRIRIYAT

(Toshkent viloyati hokimligi matbuot xizmati bilan hamkorlikda tayyorlandi)



Uch avlod uchrashuvi

TARIX VA BUGUN YUZLASHDI



Muallif suratga olgan



Milliy armiyamizni zamonaviy talablar asosida shakllantirish, harbiy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va yosh kadrlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida mamlakatimizda izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, oliy harbiy ta'lim muassasalarida yaratilgan yangi infratuzilmalar, ilg'or o'quv-metodik baza hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim muhiti bugungi kun talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda. Ana shu ezgu maqsadlar doirasida

Shuningdek, institutda tashkil etilgan "Mafkuraviy poligon" va "Raqamli poligon" kursantlarning nafaqat jangovar mahorati, balki ma'naviy-axloqiy, tahliliy va strategik fikrlash ko'nikmalari shakllantirilayotgani alohida ta'kidlandi. Bu kabi poligonlar yosh harbiylarni zamonaviy



– Bugungi uchrashuv biz uchun katta mahorat maktabi bo'ldi, desam, mubolag'a bo'lmaydi, – deydi 4-bosqich kursanti Diyorbek Shoyiqulov. – Chunki bu muloqot orqali biz faqat nazariy bilim, balki hayotiy tajriba, xizmat davomida uchraydigan sinovlar va ularni yengib o'tish yo'llari haqida zarur saboq oldik. General va ofitserlarning samimiy maslahatlari, Vatanga sadoqat va kasbga fidoyilik haqida fikrlari biz, yosh kursantlar uchun kuchli ruhiy tayanch bo'ldi. Ular tomonidan bildirilgan har bir fikr kelajakda o'z xizmat vazifamizni sidqidildan bajarish, o'z ustimizda doimiy ishlash va zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarni chuqur egallashga undaydi. Bunday uchrashuvlar bizda nafaqat faxr va iftixor tuyg'ularini, balki katta mas'uliyat

hissini ham shakllantiradi. Endi oldimizda turgan asosiy vazifa yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, Vatan himoyasiga doim shay bo'lgan bilimli va irodali ofitser sifatida kamol topishdir.

Mehmonlar samimiy muloqot yakunida bugungi kursantlarning bilim olishga bo'lgan intilishi, harbiy kasbga sadoqati va yuksak intizomidan mamnun ekanini ta'kidladi. Shuningdek, harbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, o'quv jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilayotgani kelajakda malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutida bir vaqtlar shu dargohda tahsil olgan general va ofitserlar yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish maqsadida oliy harbiy ta'lim muassasasiga tashrif buyurdi.

Mehmonlar institut faoliyati va o'quv-moddiy bazasi bilan yaqindan tanishar ekan, "Shon-sharaf" monumenti, "Raqamli poligon", "Mafkuraviy poligon" hamda zamonaviy sinfxonalar ularda katta qiziqish uyg'otdi.

Tashrif davomida mehmonlar institut hududida barpo etilgan yangi o'quv binolari, zamonaviy auditoriyalar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazishga mo'ljallangan trenajyor zallari hamda raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan ta'lim maydonlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Ular uchun kursantlar tayyorgarligini oshirishga qaratilgan innovatsion o'qitish usullari, interaktiv darslar va mashg'ulotlar namoyish etildi.

tahdidlarga qarshi tayyorlash, axborot maydonida mustaqil fikrlay olish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbir davomida oliy harbiy ta'lim muassasasi boshlig'i hamda mudofaa sohasida uzoq yillar rahbar sifatida faoliyat yuritgan tajribali faxriylar mashg'ulot rahbarlari va tinglovchilar ishtirokida "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni" mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi.

Ustozlar va kursantlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda harbiy ta'limning kechagi va bugungi holati qiyosiy tahlil qilinib, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi yuzasidan fikr almashildi. Tashrif buyurgan general va ofitserlar o'z xizmat faoliyati davomida orttirgan boy tajribalari bilan o'rtoqlashib, yosh avlodga Vatanga sadoqat, harbiy burchga mas'uliyat va kasbga fidoyilik ruhida qimmatli maslahatlar berdi.



Muhim yangilik

Sun'iy intellekt bilan yonma-yon yuradigan kosmik sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish, yo'ldoshli aloqa texnologiyalarini joriy etish borasida ham katta qadamlar tashladik. Bu borada 2028-yilda Samarqandda Xalqaro astronomika kongressini o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Bugun sizlarga yana bir muhim yangilikni aytmoqchiman. Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun'iy yo'ldosh va mamlakatimiz fuqarosi bo'lgan birinchi o'zbek kosmonavtini fazoga uchirish bo'yicha ishlarni boshladik. Bu – Yangi O'zbekistonning ilmiy va texnologik rivojlanishiga, umuman milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga olib chiqishga katta turtki beradi, deb ishonaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga
Murojaatnomasidan

MAYDANAK RASADXONASIDA KASHF ETILGAN SAYYORA

2009-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining Maydanak observatoriyasida Bahodir Hafizov va Aleksey Sergeyev yangi kichik sayyora kashf etishdi. Prezident taklifi bilan bu kichik sayyora jahonning eng ko'hna va go'zal shaharlaridan biri, astronomiya fani rivojlangan shahar Samarqand nomi berildi. Bu haqda 2010-yil 27-mayda chop etilgan Garvarddagi Xalqaro kichik sayyoralalar markazining 70135-sonli sirkulyarida xabar berilgan.

“Samarqand” sayyorasining ochilish tarixi

2007-yili ancha salqin bo'lib qolgan kuz tunlarining birida Bahodir va Aleksey Maydanak observatoriyasining AZT-22 rusumli bosh teleskopining monitorida turg'un yulduzlar fonida tez harakat qilayotgan bir obyektning ilg'ab qolishadi. Bu obyektning osmon koordinatalarini va taxminiy orbitasi elementlarini aniqlab, AQShdagi Garvard kichik sayyoralalar markaziga yuborishdi. Tez kunda u yerdan bu obyekt xalqaro kataloqlarda qayd etilmagani va unga dastlabki 2007 TU2 raqami berilgani to'g'risida quvonchli xabar keldi. Yosh olimlarning quvonchi cheksiz edi. To'g'ri, har bir kashfiyot ortida mashaqqatli mehnat yotadi, lekin omad ham kulib boqishi kerak. Axir markazdan ular ochgan sayyora allaqachon ochilgani va xalqaro kataloqlarda falon raqam bilan qayd etilgani to'g'risida javob kelishi ham mumkin edi-ku. Bunday hollar kam uchraydi deysizmi? Lekin bu haqiqatan yangi sayyora deb xulosa chiqarishga hali erta edi.

Gap shundaki, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, kichik sayyoraning Quyosh atrofida aylanish davri taxminan 4 yilni tashkil etadi. Bu uning orbitasini to'liq aniqlash uzoq kuzatishlarni taqozo etadi degani. Sayyora yana ikki yil uzluksiz kuzatildi va uning orbitasi elementlari yuqori

aniqlikda topildi. Nihoyat, 2009-yilda Garvarddagi Xalqaro kichik sayyoralalar markazidan bu haqiqatan ham hech kim tomonidan kuzatilmagan yangi kichik sayyora ekani va u endi xalqaro kataloqlarda doimiy 210271-raqam bilan qayd etilgani to'g'risida xabar keldi.

Hozirda ma'lum kichik sayyoralardan beshtasining nomi O'zbekiston bilan bog'liq. Bular “O'zbekistoniya”, “Avitsenna”, “Ulug'bek”, “Beruniy” va “Xorazmiy” nomlari bilan atalgan kichik sayyoralardir. Bu nomlar turli yillarda xorijiy astronomlar tomonidan kashf etilgan kichik sayyoralarga mamlakatimiz va buyuk bobokalonlarimiz xizmatlarining e'tirofi sifatida berilgan. 210271-raqamli sayyora esa O'zbekistonda ilk bor ochilgan kichik sayyoradir.

Yangi kichik sayyora haqida ma'lumotlar:

- **quyoshdan ungacha bo'lgan masofa** 3044 astronomik birlik yoki taxminan 455 million kilometr;
- **yerdan ungacha bo'lgan masofa** taxminan 2044 astronomik birlik yoki taxminan 306 million kilometr;
- **joylashuv o'rniga ko'ra**, Mars va Yupiter sayyoralari oralig'ida;
- **quyosh atrofidagi orbitasi** 4.29 yil;
- **taxminiy diametr diapazoni** 849 metr X 1.9 kilometr.

“SAMARQAND” SAYYORASI

O'n sakkiz ming olamda
qancha sir-u asror bor,
Sobit-u sayyoralar
necha-necha Kahkashon.
Moziy qa'ridan kelur
bobolarning ovozi:
Tafakkur qanotingdur,
yuksakka intil, Inson!

Beruniy zehniyati,
Ulug'bek tafakkuri
Ochgan edi bir paytlar
falakning darvozasin,
Alarning ko'z o'ngida past
bo'lgan edi osmon,
Dunyolarga taratib
o'zbekning ovozasin.

“Ziji Ko'ragoniy”ning qarshisida
lol qolib,
Yetti iqlim olimi eggan
edi boshini,
Butun jahon kutardi har tong
muzaffar, g'olib,
Samarqanddan balqigan
tafakkur quyoshini.

Bu quyosh so'ngani yo'q,
Garchi qora bulutlar
Necha bora urindi to'smoq
bo'lib nurini,
Necha marta jaholat lashkarlari
chang solib,
Toptamoq bo'ldi, xalqim
orini, g'ururini.

Bu quyosh so'ngani yo'q
Va so'nmagay hech qachon,
Toki bor yuraklarda
ma'rifatning shuuri,
Toki bor O'zbekiston,
Toki bor dilda Imon,
Toki bordir xalqimning
yengib bo'lmas g'ururi.

Bugun ham bobolarning
yelkasida turganday
Bobolarning ilmidan
tafakkuri sarbaland,
Yangi bir sayyorani kashf
etib nabiralalar
Buyuklik sharafiga nom
qo'ydilar: “Samarqand”.

Sarhadi yo'q falakda kezar
necha sayyora –
Ularning orasida,
Dilda qo'zg'ab iftixor –
Xorazmiy va Ulug'bek,
Ibn Sino, Beruniy,
Buyuklarning Vatani –
O'zbekiston nomi bor.

Sen, ey navqiron avlod,
Munosib bo'l ularga,
Ilm ista har qachon,
ilm kuchiga ishon.
Unutmagin donishmand
bobolar hikmatini:
Tafakkur qanotingdur,
yuksakka intil, Inson!

Xurshid DAVRON



Ko'ngil kengliklari



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



VATAN ICHRA VATANDIR U

Har gal shahardan qishloqqa qaytish oldidan huzur tuyaman. Sevganining diydoriga shoshgan oshiq misol ko'zlarimdan quvonch sachrab, yugurganim yugurgan. Osmon bir muddat yaqinlashgandek bo'laveradi. Dunyoda ko'z ochgan ne'mat borki, go'zal tus oladi. Bu lahzada dushmanimning istiqboliga-da yorug' chehrada chiqishim mumkin.

"Vatanning bir burchida kichkina Vatan kutyapti", deyman safardoshlarimga. Ko'nglim esa hapriqqani-hapriqqan. Mening bir kichik qishlog'im bor. U xaritalarda mayda nuqta bo'lib ko'rinar, ammo mening qalbimda butun bir olamdek katta.

**Men uyimga qaytganda
bir dam,
"Og'am", degan so'z
kelar qirdan.
Tovonim tovushin
sog'ingan toshloq,
Boladay quvonib
qoladi qishloq.
Qosh-ko'zimdan o'par –
"Shukr, salomat,
Otingdan aylanay,
bolam, Muhammad".**

Har gal qishloqqa qaytar ekanman, shu she'rdagi tuyg'ular ummoniga g'arq bo'laman. Bolaligim o'tgan olis dalalar qo'ynida hayqirib-hayqirib, g'uborlarimni to'kib olaman. Shahar torligidan diqqinafas bo'lgan ko'ksimga osmon kirib oladi. Qo'llarim keng quloch yozib, uchmoqqa intilayotgan polaponlardek har tomon qanot qoqa boshlaydi. Bu yerning har daraxti, toshi, daryosi, kengliklari bilan bog'liq xotiralarim bisyor. Zarang tayoqni yelkalagancha, uch-to'rt govmishga ergashib bu kengliklarni zabt etganman, desam, aslo mubolag'a bo'lmas.

Qishlog'im, kichkina Vatanim haqida so'zlar ekanman, otamdan bizga omonat bo'lib qolgan bog' haqida gapirmasam, bu dashtlar meni kechirmaydi.

Hozir akamning qo'llarida unum topayotgan bu uzumzorda kaminaning yoshligi ot choptirib o'tgan. To'rtta og'ochning bag'riga ikki qavat qamishli cho'p chaylani qurgancha olis osmonlarga termilib yotganman. Ehhe, u davrlarning zavqi o'zgacha, hozir o'ylasam, o'zimni ulg'ayib qolgandek his qilaman. Ulg'ayish eng yomon jazo aslida odam uchun. Avvalboshda ulg'ayishni orzu qilganim uchun o'zimni aybdordek sanayman. Ayni paytda sigirim bolalagani uchun suyunchi beradigan otam yo'q. Qolganlarning esa parvoyiga ham kelmaydi. Sigiring bolalaydimi, yo'q bo'lib ketadimi, qiziqmas. Mana, nima uchun ulg'ayish yomon. Hamma o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolaverar ekan.

Bugun internet davrida yashayapmiz. Hamma o'zini ijtimoiy tarmoqlarga urgan. Odamlar har jabhada yuz ochmoqda. Umr esa magnitofon tasmasidek o'tib boryapti. Artist qo'shig'i, tadbirkor mahsuloti, dehqon hosili bilan. Brendini reklom qilmoqda. Shu desangiz, shoirlarda shu ish biroz oqsaganga o'xshaydi. Men bu aqidani buzib, mana shu esse deymizmi, maqolami, xullas, yuragimni to'kib turgan qoralamam orasiga

yuqoridagi she'ning davomini qistirib ketsam, maqsadga muvofiq bo'lar.

**Bo'yniga tolpopuk
ilgancha guldin,
Shahloko'z sigirlar
boqar og'ildan.
Ko'ksimga oyog'in
qo'ygach Olapar
Jo'xoripoyada
halloslab chopar.
Quchaman, tomirim
botgan yerimni,
Maysalari takrorlaydi
she'rimni.
Go'yo ulug' jangda
topgandek zafar
Har giyoh, har yaproq
meni olqishlar.**

Mana shu qishloq, kaminaning ta'biri bilan aytganda, shu kichkina Vatanga kindik qonimiz to'kilgan. Odamlari samimiy, sodda, yomonlikdan yiroq. Hammaning o'z olami bor, birov dehqon, kimdir traktorchi, birovi esa haydovchi, yana boshqasi bekorchi. Bu yerlarda bir ishning boshini tutmasangiz ham och qolmaysiz. Shunday bag'rikeng go'sha bu. Yana Susambil deb o'ylab yurmang. Axir ijodkormiz, so'zga so'z qo'shmasak, gapimiz qovushmaydi.

Ko'p yaxshi narsalar haqida so'zladim, ammo onamni, qishloq onalarini yodimdan chiqarsam, bo'lmas. Bu yerlarda erta tongdan mashinalar glushitelidan chiqqan benzin, gaz hidi emas, tandirdan endigina uzilgan issiq kulchalarning xushbo'y ifori dimog'ingizni qitiqlaydi. Chelaklarda sahar sog'ib, ishqomga o'sib qo'yilgan sutning bo'yi ajib tarovat taratadi. Qishloqda tong ham o'zgacha otadi. Yon daftarim bitiklaridan birida shunday

yozgandim: **"Odamlar qishloqni sog'inish uchun shaharga ko'chib ketishadi"**. Aslida ham shunday. Shoir-yozuvchilarni ko'rmaysizmi, "Yelkamning chuquri ko'rsin shu qishlog'ingni", deb achchiq qilishadi-yu, butun umr uni kuylab o'tishadi. Axir har qanday asar sog'inchdan, iztirobdan dunyoga keladi-da.

Xullas, bu kichkina Vatanni yana bir muddat tark etish vaqti yetganda ko'nglimizga tun cho'kib qoladi. Lahzada qaytib ketayotganga o'xshaysan. Ketish esa judayam og'ir. Yo'lingning oxiri jannat bo'lsa ham, ketish og'irdir.

**So'ng orzu ortidan
qayta uchaman,
Yana yakkalanib qolar
bu chaman.
Dilimga sim-siyoh tun
cho'kar birdan,
Onamning kulchasi
kuyar tandirda.
Chirog'i yonig'liq
kutur bu go'sha,
Ketaman yurtimdan
quvg'inga o'xshab.
Boraman – quchog'i
to'lar Yakkabog',
Ketaman – o'ksinib qolar
yakka bog'.**

So'z qopimning so'ngi ko'rinib qolibdi-yu, bu kichkina Vatanning nomini aytman. Yakkabog'. Men shu bog'-u rog'li o'lkada tug'ilib o'sdim. Har qarich yerida tovonim izi bor. Har yutug'imda uning hissasi bisyordir. Kamchiliklarim esa o'zimniki. Meni shu ona Vatan tomon tetapoya qildirgan mana shu qishloq, kichkina Vatandir.

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**

Chegara qo'shinlarida



HAM E'TIBOR, HAM MAS'ULIYAT

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani qo'shni Qozog'iston hamda Qirg'iz Respublikalari bilan chegaradosh. Hududning tabiati juda xushmanzara bo'lishi bilan birga relyefining o'ziga xosligi bu yerda xizmat qilayotgan chegarachilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ya'ni chegara chizig'ining noqulay joylashuvi harbiy xizmatchilardan har qanday mavsumda ham qo'riqlovni amalga oshirishda alohida e'tiborni talab qiladi.

Ushbu hududda tabiatning har qanday inijliklariga dosh berib, tun-u kun sobit qadam tashlayotgan harbiylarning xizmat va turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida barpo etilgan yangi, zamonaviy ma'muriy bino hamda turarjoylarni foydalanishga topshirish marosimi tantanali ravishda tashkil etildi.

Karnay-surnaylarning chorlovi bilan boshlangan bayramona tadbirida Bo'stonliq tumani hokimligi, Pskom mahalla fuqarolar yig'ini faollari, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari mas'ullari hamda faxriylar ishtirok etdi. So'z olganlar sarhadlarimiz posbonlarini qutlash barobarida bugungidek o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashib, doim O'zbekiston xalqi va Prezidentining e'tibori hamda ishonchiga munosib bo'lishlari zarurligini ta'kidladi.

Shundan so'ng amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarida jonbozlik ko'rsatgan quruvchilarga esdalik va qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Harbiy shaharchada barpo etilgan yangi xizmat xonadonlarining kalitlarini qabul qilib olgan yurt himoyachilari va ularning turmush o'rtoqlari quvonchi cheksiz bo'ldi.

Alvon tasmalar kesilgach, mehmonlar bu yerda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar bilan yaqindan tanishar ekan, ma'muriy binoda chegaraning qo'riqlov tizimiga joriy etilgan uzluksiz videokuzatuv tizimi imkoniyatlariga guvoh bo'ldi.

Barcha zarur o'quv qurollari bilan jihozlangan mashg'ulot xonalari harbiy xizmatchilarning bilim va jangovar salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlandi.

Binodagi milliy hamda jahon adabiyotining bosma va elektron namunalari bilan boyitilgan kutubxona, sarhadlarimiz himoyachilarining jismoniy imkoniyatlarini yanada oshirish maqsadida barcha sport anjomlari bilan jihozlangan sportzal, taomlanishlari uchun keng, yorug' va shinam oshxona ham mehmonlar nazaridan chetda qolmadi.

Aksariyat chegarani qo'riqlash vavodlari shahar markazlaridan olisda joylashgani sababli mazkur hududlarda harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari bandligini ta'minlash, ularning farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Mazkur shaharcha hududida ham tikuvchilik sexi va tuman maktabgacha ta'lim tashkilotining qisqa muddatli guruhi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, tadbir ishtirokchilari ushbu maskanlarda yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham yaqindan tanishdi. Harbiy shaharchaning ko'rkiga ko'rk qo'shib, tog' bag'riga yarashgan xizmat xonadonlari va ulardagi qulayliklar esa mehmonlarning alohida diqqat-e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Katta leytenant Davronbek Hayitov bir necha yildan buyon davlat chegarasining tog'li hududlarida xizmat qilib, zimmasidagi mas'uliyatni fidoyilik bilan ado etib kelmoqda. Bugungi tadbirdan u va oilasining quvonchi cheksiz.

– Bu biz uchun ham e'tibor, ham mas'uliyat, – deydi Davronbek. – Amalga oshirilayotgan islohotlar barchamizga kuch va qanot bag'ishlab, yangi-yangi marralar sari undaydi. Zero bugun dunyodagi vaziyat murakkab va tahlikali. Ana shunday sharoitda tinchlikni ta'minlash oson emas. Vatanimiz, Oliy Bosh Qo'mondonimiz biz va oilamiz uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Bizdan talab etiladigani esa o'z ustimizda ishlab, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan holda xalqimizning osoyishtaligini ta'minlashdir.


Albatta, Vatan posbonlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga qulay xizmat va turmush sharoitlarini yaratish davlatimizning doimiy diqqat-e'tiborida ekan, madhiyamizda kuylanganidek, olamni mahliyo aylagan diyorimiz hamisha yuksalib, sarhadlarimiz daxlsizligi yanada mustahkamlanib boraveradi.

Mayor Farida BOBOJONOVA

DXX Chegara qo'shinlari



Meros



“RAHMAT SIZGA, HAZOR, RAHMAT SIZGA!” YOKI AMIR TEMUR VA BOBUR

Bobur “Boburnoma”da buyuk bobokaloni sohibqiron Amir Temurning shonli faoliyati bilan bog’liq 31 ta ma’lumot yozgan va shu sababli uni Amir Temurning ilk tadqiqotchilaridan biri deb bilish mumkin. Boburdan boshqa temuriy hukmdorlar Amir Temur haqida yozilgan tarixiy kitoblarni tarixchilarga buyurtma tarzida yozdirgan. Mazkur maqolada shu qimmatli ma’lumotlarning uch jihatiga diqqat qaratdik.

Birinchisi – Bobur memuarda Temuriylar Uyg’onish davriga xos harbiy taktika hamda bunyodkorlik ishlari va o’zining faoliyati bilan bog’liq bo’lgan ayrim qiyosiy tasvirlarda sohibqiron nomini tilga olgan. Ishonchli manbalardan ma’lumki, “Amir Temur saltanati nihoyat darajada katta qo’shinga va uning barqaror ta’minot tizimiga ega bo’lgan. Oliy Bosh Qo’mondon Amir Temurning o’zi hisoblanib, u bo’lmagan vaqtlarda qo’shinlar ishiga noibi, bosh amir – amir ul umaro boshchilik qilgan, “Temur tuzuklari”da ko’rsatilishicha, bu unvonga besh kishi sazovor bo’lgan”.

Dunyo harb ilmi va harb ishi tarixida Temuriylar Uyg’onish davri harbiy taktikasi va usullari yuksak darajada e’tirof qilingan. Bobur bu davr harb ishi, san’atiga doir “Harb ishi” nomli ilmiy asar ham yozgan, baxtga qarshi mazkur asar bizgacha yetib kelmagan. U bobokaloni kabi harbiy arbob sifatida qo’shinning tuzilishini – o’nlilik, yuzlik, minglik, tumanlik, Borong’ar, Avong’ar shaklida mahorat bilan boshqargan, ularning ishonchini qozongan va qo’shindagi intizomni saqlash va g’alabani ta’minlash uchun Amir Temurning “Kuch – tartibda” degan qoidasiga qattiq amal qilgan va tartibni saqlash uchun bir qator jazo turlarini qo’llashda ham hech ikkilanmagan.

MASALAN, “Boburnoma”da yozishicha, agar uning jangchilari xalq, el-ulusdan ruxsatsiz, zulm, zo’rlilik bilan bir ip uchi, bir igna sinig’i, bir ko’za yog’ olsa ham, qattiq jazolangan. Hatto u eng og’ir jazo turi, ya’ni o’lim jazosini ham joriy qilgan. Chunonchi: “Yom navohisida ekanda shahrdin qalin el bozori va g’ayri bozori chiqib, o’rdu bozorda bo’lub, sud va savdo qilurlar edi. Bir namozi digar bayakbor g’avg’oyi omi bo’lub, bu musulmonlar tamom talong’a bordilar. Cherik zabti bu martabada erdikim, farmon bo’ldikim, jami’ elning jihatini hech kim saxlamay, tamom yondura berg’aylar. Tonglasi bir pahar bo’lmaydur erdikim, ip uchi, igna sinug’icha nima cherik iligida qolmadi, borchasini egalari g’ay yondura berdilar” (“Boburnoma.” 56-bet).

Yana manbalarda qayd etilishicha, memurning 1828-yilda A. Kayzer tomonidan amalga oshirgan nemis tilidagi tarjimasida Boburning harbiy yurishlarini aks ettiruvchi alohida xarita ham ilova qilingan. Bu ilova qilingan xarita shuni ko’rsatadiki, birinchidan, dunyo olimlari u qo’llagan harbiy taktika va usullarga alohida qiziqish bildirgan, ikkinchidan esa Amir Temur va Boburning harbiy taktika hamda usullari ayrim rivojlangan davlatlar harbiy o’quv dasturlaridan o’rin olganini anglatadi.

SHU MA’NODA Bobur o’zini Sulton Husayn Boyqaro yoki boshqa temuriy hukmdor va valiahd shahzodalar bilan qiyoslagan qiziqarli tasvir hamda ma’lumotlardan biriga murojaat qilsak. “Boburnoma”ning 1503–1504-yil voqealar bayonida, ya’ni Kobulda mustaqil hukumat tuzgan Bobur podshohga qosid

(Qosid – xabarchi, xat tashuvchi, elchi, chopar, intiluvchi kabi leksik ma’nolarni anglatuvchi so’z. Alisher Navoiy va Boburning lirik va nasriy asarlari matnida keng qo’llangan shaxs oti hamda badiiy obraz) orqali Sulton Husayn Boyqarodan harbiy kuch bilan Shayboniyxonga qarshi chiqish, qarshi turishga undovchi xabarlar keladi.

Maktublardan birida Sulton Husayn Boyqaro Bobur podshohga Kohmard va Ajarda harbiy istehkom bilan mustahkam turishi haqida yozib yuboradi. Biroq Sulton Husayn Boyqaroning keksalik va kasallik davrida, “Temurbekning yurtida” va aynan Xurosonda kechayotgan siyosiy beqarorlik sababmi, uning oqibatini o’ylamay tutgan harbiy taktikasi va rejalar yosh bo’lsa-da, harb ilmi va harb ishini yaxshi bilgan sarkarda, yuksak harbiy iqtidorga ega Bobur podshohga ma’qul kelmaydi va bu o’rinda u ogohlik bilan markazlashgan Temuriylar davlati asoschisi, Bosh qo’mondoni, adolat va qudrat timsoli, shonli sulolaning bosh bo’g’ini bo’lgan, yigirma yettita davlatni o’z tasarrufiga olgan mulkgir Amir Temurni yodga oladi. U asar matnida “Temurbekning yurtida” iborasini ishlatgan va Amir Temur davlati dunyoning eng qudratli davlati bo’lganiga ishora qilgan. Bobur yozadi: “Sulton Husayn Mirzoning bu xatlari mujibi noumidlik bo’ldi. Ne uchunkim, Temurbekning yurtida bu tarixda andin ulug’roq podshoh ham yosh va ham viloyat va ham cherik bila yo’q edi”.

YANA U “Temurbek o’rnig’a o’lturg’on” deya o’z fikrlarini davom ettirib, mudofaasi, g’alabasi, oqibati ta’minlanmagan harbiy yurishdan tashvishga tushib, qattiq norozi bo’lganini yaqqol sezdirib, shunday tushuntirishga harakat qilgan: “Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o’rnig’a o’lturg’on ulug’ podshoh g’animining ustig’a yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa, ne umidvorliq qolg’ay?” (“Boburnoma”. 103-bet).

Bu lavha uslubi haqida yana shuni aytish mumkinki, Boburning bu yozganlari o’zi chaqirgan kengashlardan birida so’zlagan shonli nutqi bo’lsa kerak, deb taxmin qildik. Chunki lavha uslubi rasmiy uslubga xos bo’lib, hukmdorning kengash, qurultoy yoki majlisda o’z atrofiga yig’ilganlarga, aynan davlat mulozimlariga, harbiy amirlariga qarata aytilgan, so’zlangan nutqni eslatadi. Va ma’lum ma’noda bu nutqni uning norozilik notasi, bayonoti deb aytish ham mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jadidchi, ma’rifatparvar Vadud Mahmud o’zining “Alisher Navoiy” nomli maqolasida Bobur shaxsini Amir Temur, Yildirim kabi buyuk qo’mondonlar safida tanishtirib o’tgan. Boburning ham davlat, ham dinning talabini bajarayotgan mard, jur’atli harbiy askarlariga murojaat qilib, ularni xalqona usulda olqishlab yozgan ruboiysi ham bor. Ushbu ruboiy mazmunida u askarlariga Olloh g’oliblik

ato qilganini, ularning mard, jasurligini el ham bilganini faxr tuyg’usi bilan ifodalaganini ko’rinadi. Ruboiyda “sizga” radifi qo’llangan va aynan to’rtinchi misra mahorat bilan “Rahmat sizga, hazor, rahmat sizga!” shaklidagi takror san’ati bilan yozilgan. Takror san’ati vositasida Boburning Bosh qo’mondon sifatida harbiy askarlariga bildirgan shohona iltifoti, tashakkurnomasi nihoyatda ta’sirli chiqqani bilingan.

O’qiyimiz:

Asr-u ko’p emish, jur’at-u himmat sizga,
Ro’ziy qilg’ay Xudoy nusrat sizga.
Mardonali g’ingizni bori el bildi,
Rahmat sizga, hazor, rahmat sizga!

Ikkinchi jihat – “Boburnoma”da keltirilgan bunyodkorlik ishlari bilan bog’liq yana bir qiyosiy fondagi tasvirga diqqat qilsak, tasvirga ko’ra, Bobur Agrada amalga oshirgan bir monumental imoratni bino qilishga jalb qilingan tosh yo’nuvchi usta, hunarmandlar bilan ulug’ bobokaloni bunyod qilgan masjid qurilishida qatnashgan sangtaroshlarning soni va bir kunlik ish unumi, ko’lamini qiyoslar ekan, o’zining bu borada ayrim ustun jihatlari ham hech ikkilanmay “Har ish va har nima uchun jami’ muqarrar va muayindurkim, ota-onalaridin beri ul ish va ul nimani qila kelgandurlar. Nechukkim, “Zafarnoma”da Temurbekning “Masjidi sangin” imoratini qilurda mulla Sharif mundaq mubolag’a bila bitibdurkim, Ozarbayjon va Fors va Hindiston va yana o’zga mamolik sangtaroshlaridin har kunda ikki yuz kishi masjidda ish qilurlar edi. Bir Agrada ushbu Agraning sangtaroshlaridin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sakson kishi ish qilurlar edi” (“Boburnoma”. 209-bet), deb dadillik bilan yozadi va o’z farzandlarini, kelajak avlodni ham bu kabi xayrli qurilish, bunyodkorlik ishlari, aql va qo’l ixtirolarini qilishga chorlagan.

Bu qiyosiy tasvirning biz uchun yana bir muhim jihat bor. **Birinchidan**, Bobur Temuriylar Uyg’onish davrining fozil shaxsi, mashhur klassik muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning ulug’ bobokaloni Amir Temur haqida 1424–1425-yillarda yozib tamomlagan mashhur “Zafarnoma” nomli mukammal tarixiy asarining bilimdoni ekaniga tan bersak, ikkinchidan esa ulug’ amir Alisher Navoiy katta umidlar bog’lagan valiahd Badiuzzamon Mirzoni ham ulug’ bobokaloni Amir Temur tarixidan saboq, ibrat olish maqsadida va siyosiy hushyorlik, ogohlik uchun “Zafarnoma”ni tez-tez mutolaa qilib turishga undab yozgan didaktik xarakterdagi maktubi va tazzkiralarida bitilgan “Mavlon Sharafiddin Ali Yazdiy” fiqralari yodimizga tushadi.

Uchinchi jihat – Samarqand taxtida hukumat surgan va davlat boshqargan temuriy hukmdorlar birma-bir sanab, izohlab ko’rsatilgan tarixiy davr va qizg’in jarayonlar tasvirida.

Samarqand taxti va inauguratsiya hamda mamlakat markaziy boshqaruv apparati tizimi va tuzilishi bilan

bog’liq aniq voqealar bayonida Bobur podshoh “Temurbek poytaxt qilib erdi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug’ podshoh Samarqandni poytaxt qilg’on emas” (“Boburnoma”. 59-bet), deb yozar ekan, Amir Temurning Samarqandni 1370-yilda poytaxt shaharga aylantirib, Samarqand taxtiga o’tirgandan boshlab, to Bobur o’zigacha Samarqand taxtiga o’tirgan va hukumat surgan Temurbek, Jahongir Mirzo, Muhammad Sulton, Ulug’bek Mirzo, Abdulatif Mirzo, Abdulla Mirzo, Abusaid Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysunqur Mirzo, Ali Mirzo kabi o’n ikki nafar temuriy hukmdorni nomma-nom va xronologik ketma-ketlikda sanab ko’rsatgan, faqat o’zini kishilik olmoshi “men” shaklida “Boysunqur Mirzodin men oldim” deb alohida izoh bergan.

Nimagadir Bobur shonli sulolaning bu kabi muhim tarixiy ma’lumotida Samarqand taxtida o’tirib besh yil hukmronlik qilgan va qaysidir ma’noda esa ulug’ shoir, Amir Alisher Navoiy so’zlari bilan aytganda, ko’ngil ishini mulk ishidan ustun qo’ygan, Amir Temur xazinasini sovurgan, Samarqand taxti boshqaruvini izdan chiqargan Xalil Sultonni tilga olmagan. Bunday tartib bilan ko’rsatish, **birinchidan**, Bobur uslubiga xos bo’lib, **ikkinchidan** esa u kitobxonni bir yuz qirq yilga yaqin vaqt davomida Samarqand taxti va boshqaruv tarixi bilan, ya’ni o’zi “... yuz qirq yilg’a yovuq Samarqand poytaxti bizning xonavodada edi” (“Boburnoma”. 80-bet), deb yozgan qisqa sharhini rasmiy uslubga solib, aniq qilib tanishtirgan.

Yoki o’zining Samarqand taxtida o’tirgani bilan doimo faxrlangan, kuch olgan: “Ikkinchi navbat kelganda Badiuzzamon Mirzo burungidek ta’zim qilmadi, Muhammad Burundubekka va Zununbekka ayturdimkim, agarchi yoshim kichiktur, vale to’rum (to’ram) ulug’dur, ota taxtidakim, Samarqand bo’lg’ay, ikki navbat zarbi rost olib o’lturubdurmen, bu xonavoda uchun yot yog’i bilakim muncha jang va jadal qilibturmen, mening ta’zimimda ta’xir beva jhdur. Bu so’z mazkur bo’lg’och, chun ma’qul edi, mu’tarif bo’lub, ta’zimni xotirxoh qildilar” (“Boburnoma”. 143-bet). Yana ushbu ma’lumotning mazmun va mohiyatida podshoh Boburning Badiuzzamon Mirzoga nisbatan bildirgan norozilik notasi, bayonoti ham aniq ifodalanganini ko’ramiz.

“Boburnoma”da markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda va ilm-fan, adabiyot, san’at, madaniyat homiysi, Temuriylar Uyg’onish davri bunyodkori sohibqiron Amir Temur nomi, hayoti, faoliyati bilan bog’liq o’ttiz bitta noyob tasvir, lavha, ma’lumotlarning berilishi ham biz uchun nihoyatda muhim hisoblanadi.

Burobiya RAJABOVA,
O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Tinchlik qadri

HARBIYLAR —



Surat tahririyat arxividan olindi

YURT POSBONLARI

Tinchlik – bu bolalarning kulgisi, keksalarning xotirjamligi, yoshlarning kelajakka ishonchi demak. Harbiylar ana shu tinchlikni saqlash uchun o'z vaqtini, kuchini, ba'zan esa jonini ham ayamaydilar. Shuning uchun tinchlik qadriga yetish, uni asrash har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Har bir mustaqil davlatning tinchligi, barqarorligi va kelajagi, avvalo, uning xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq. Xavfsizlik esa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, uni kecha-yu kunduz fidokorona xizmat qilayotgan harbiylar ta'minlaydi. Xalqimiz orasida "Harbiylar – yurt posbonlari" degan ibora bejiz aytilmaydi. Bu so'zlar zahirida mardlik, sadoqat, jasorat va Vatanga cheksiz muhabbat mujassam.

Harbiylik shunchaki kasb emas, balki katta hayotiy tanlovdir. Harbiy xizmatchi o'zining shaxsiy manfaatlarini emas, balki butun xalq tinchligini ustuvor qo'yadi. U har qanday sharoitda, har qanday vaziyatda Vatan



himoyasiga tayyor turadi. Bu yo'l sabr, qat'iyat va mustahkam iroda talab qiladi.

Harbiylar xizmat davomida jismonan chiniqadi, ruhan bardoshli bo'ladi va intizomni hayot mezoniga aylantiradi. Ular buyruq va mas'uliyatni chuqur anglab, har bir vazifani aniq va o'z vaqtida bajarishga o'rganadi. Shu bois harbiylar jamiyatda intizomli, mas'uliyatli va ishonchli insonlar sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi tinch va osoyishta hayotimiz ortida harbiylarning mashaqqatli mehnati yotadi. Biz kundalik yumushlarimiz bilan band bo'lgan bir paytda, chegaralarda, harbiy qismlarda va mashg'ulot maydonlarida askar va ofitserlar bedor turib, yurt osoyishtaligini asrab kelmoqda.

Harbiylar yosh avlod uchun ibrat maktabidir. Ularning intizomi, tartibi va Vatanga bo'lgan sadoqati yoshlarni yurtga muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan vatanparvarlik tadbirlari, harbiylar bilan uchrashuvlar yoshlar ongida muhim iz qoldiradi.

Ko'plab yoshlar harbiy xizmatni sharaflı burch deb bilib, armiyada xizmat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Bu esa kelajakda yurtimiz xavfsizligini ta'minlaydigan yetuk kadrlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda harbiy xizmat faqat qurol bilan bog'liq emas. Zamonaviy armiyada axborot texnologiyalari, muhandislik, aloqa tizimlari, kiberxavfsizlik va razvedka sohalari muhim o'rin tutadi. Harbiy xizmatchilar doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarini oshirib, zamon bilan hamnafas bo'lishi talab etiladi.

Armiya xalqdan ajralgan tuzilma emas. Aksincha, harbiylar xalqning farzandlaridir. Ular oddiy oilalarda voyaga yetgan, xalq dardi va quvonchini his qiladigan insonlardir. Shu bois armiya va xalq o'rtasidagi ishonch va birlik davlat mustahkamligining asosiy omillaridan biridir.

Bayramlar, ochiq eshiklar kunlari, yoshlar bilan uchrashuvlar orqali harbiylar jamiyat hayotida faol ishtirok etib kelmoqda. Bu esa yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi, harbiy kasbga bo'lgan hurmatni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yurtning ishonchli posbonlari bor ekan, yurtimizda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot bardavom bo'ladi.

Doniyorbek TO'XTAQULOV,
Harbiy xavfsizlik va
munofaa universiteti
Sharqiy harbiy okrug fakulteti kafedra
boshlig'i

Kelajagimiz bunyodkorlari

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident, ijod hamda ixtisoslashtirilgan maktablarning "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatiga a'zo o'quvchilari o'rtasida tashkil etiladigan "Turon yo'lbarlari" harbiy sport musobaqasi yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, jasorat va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TAYYORGARLIK AVJ PALLADA



"Turon yo'lbarlari" harbiy sport musobaqasi ijod maktabimiz uchun an'anaviy va mas'uliyatli bellashuvlardan biri hisoblanadi. Xususan, o'tgan yili ijod maktabimizning "Shunqorlar" jamoasi ushbu musobaqada munosib ishtirok etib, viloyat bosqichida 1-o'rinni, respublika bosqichida esa faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Bellashuvlar "Temur tuzuklari" bilimdoni, kamon va sport qurolidan o'q otish, qurolni to'liq bo'lmagan qismlarga ajratish va yig'ish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kabi shartlar asosida tashkil etildi. "Shunqorlar" jamoasi mazkur yo'nalishlarning barchasida yuqori natija qayd etib, o'zining puxta tayyorgarligi, jamoaviy hamjihatligi va intizomi bilan ajralib turdi hamda musobaqa yakunida diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Ushbu yutuq ijod maktabimiz o'quvchilari uchun katta faxr va kelgusi ishtirokchilar uchun muhim motivatsiya bo'lib xizmat qilmoqda.

Joriy yilda ham mazkur musobaqaga ijod maktabimizda alohida e'tibor va katta mas'uliyat bilan tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Maktabimizda tashkil etilgan maxsus mashg'ulotlar o'quvchilarning harbiy sport yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar rejali va tizimli ravishda o'tkazilib, unda o'quvchilarning jismoniy chiniqishi, tezkor fikrlashi hamda intizomi yanada rivojlantirilmoqda.

Tayyorgarlik jarayonida musobaqaning muhim shartlaridan biri bo'lgan "Temur tuzuklari" bilimdoni yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilar

buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning harbiy san'ati, davlat boshqaruvi, tartib-intizom va adolat haqidagi qarashlarini chuqur o'rganmoqdalar. Bu bilimlar yoshlar ongida tarixiy merosga hurmat, milliy g'urur va Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlamoqda.

Shuningdek, ijod maktabimizda kamondan o'q otish, qurolni to'liq bo'lmagan qismlarga ajratish va yig'ish, sport qurolidan o'q otish kabi amaliy mashqlar muntazam tashkil etilmoqda. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning aniqlik, diqqat-e'tibor, chaqqonlik va mas'uliyat hissini oshirishga xizmat qilmoqda. Har bir mashq tajribali ustozlar va mas'ullar rahbarligida, xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, musobaqa shartlaridan biri bo'lgan birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha ham amaliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. O'quvchilar favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga dastlabki yordam ko'rsatish, tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallamoqda. Bu esa nafaqat musobaqa jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijod maktabimizda "Turon yo'lbarlari" harbiy sport musobaqasiga ko'rilyotgan puxta va izchil tayyorgarlik ishlari yoshlarning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlashga, ularni Vatanga sadoqatli, jasur va fidoyi etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Joriy yilgi musobaqada ijod maktabimizning "Shunqorlar" jamoasi ishtirok etib, avvalgi yutuqlarni munosib davom ettirish, yuqori natijalarga erishish hamda maktabimiz nomini yana bir bor munosib himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Feruzaxon ABDULAHADOVA,
Erkin Vohidov nomidagi
ijod maktabi o'quvchisi

“TOVARISH” SO‘ZI

HAM O‘ZBEKCHA

Dunyo tillari lugʻat tarkibining boyishi va takomillashuvida oʻzga tillardan kirgan oʻzlashmalar muhim rol oʻynaydi. Dunyoda sof tilning oʻzi yoʻq. Bir tilda ikkinchi bir til unsurining boʻlishini tabiiy hol sifatida qabul qilish mumkin. Shu maʼnoda turkiy tillardan, xususan, oʻzbek tilidan ham boshqa tillarga muayyan miqdordagi terminlar oʻzlashgan va oʻzlashmoqda. Rus tilining lugʻat tarkibiga nazar tashlar ekanmiz, unda turkiy tillardan oʻzlashgan katta miqdordagi terminlar bor ekanining guvohi boʻlamiz.

Tilshunos E.N. Shipova 1976-yilda nashr qilingan “Словарь тюркизов в русском языке” nomli kitobida shunday yozadi: “Rus tili tarixiy rivojlanish jarayonida turkiy tillardan minglab soʻzlarni oʻzlashtirgan”. Olimning mazkur lugʻatida turkiy oʻzlashmalar soni 2 000 ga yaqin.

TOVAR VA ESH

Bugungi kunda oʻzbek tilida ruscha deb qaralayotgan bir qator leksemalar ham borki, ularning ildizlari oʻrganilganda, bu soʻzlarning umumturkiy ekani maʼlum boʻladi. Mazkur maqolada asli umumturkiy boʻlib, keyinchalik slavyan tillariga oʻzlashgan bir qator terminlar xususida fikr yuritamiz. Jumladan, rus tilida isteʼmolda boʻlgan **tovarish**, **yogurt** terminlarining etimologiyasiga tarixiy faktlar asosida nazar tashlaymiz.

Koʻpchilik **tovarish** leksemasini rus tiliga xos deb biladi. Tarixan mazkur soʻz qoʻshma soʻz boʻlib, “**tovar**” – sotish uchun moʻljallanib, ishlab chiqarilgan har qanday mol va “**ish** – **esh**”, “oʻrtoq”, “sherik” soʻzlarining qoʻshilishi natijasida hosil boʻlgan.

Oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligida bugungi kunda **tovarish** soʻzini hosil qilgan “tovar” va “esh” soʻzlari qoʻllanilib kelinayotgani ayni haqiqat. Shu oʻrinda aytishga toʻgʻri

keladi. Hatto, **tovar** soʻzining asli oʻzbekcha ekanini bilmaydiganlar ham koʻpchilikni tashkil qilishi shubhasiz.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga nazar tashlar ekanmiz, **tovar** leksemasiga shunday izoh berilganini oʻqiymiz:


1. Ayirboshlash, sotish uchun ishlab chiqarilgan mehnat mahsuloti.
2. Savdo-sotiqdagi har qanday mol.
- Lugʻat maqolasida mazkur leksemaning iqtisodiy termin ekani qayd etilgan, lekin qaysi tilning birligi ekani koʻrsatilmagan.

Shu oʻrinda Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻoti-t-turk” asariga murojaat etamiz:

1. Tavar – tovar, mol (I, 389-b.).
2. Tavar – jonli, jonsiz mol (I, 343-b.).
- Mazkur termin asosida tavarliq – mollar turadigan joy, tavarligʻ er – molli odam kabi yasama terminlar hosil boʻlganini ham eʼtirof etish kerak (I, 456-b.).

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da **esh** leksemasiga shunday izoh berilgan:

1. Esh – oʻrtoq, hamdam, yoʻldosh, sherik. Hasratiga quloq sol, hasratiga boʻlgil esh (Turob Toʻla). Oʻzbek tilida **Esh** bilan bogʻliq ismlarda davlatga, ijtimoiy maqomga, xislatga, quvvatga **sherik**, **ega boʻlish** maʼnolari bilinib turadi: Eshdavlat, Eshmirza, Eshqobil, Eshquvvat kabi.



1975-yilda N. Shanskiy va boshqalar tomonidan Moskvada nashr qilingan “Краткий этимологический словарь русского языка” nomli lugʻatga eʼtiborni qaratamiz. Muallif tovar leksemasi aynan turkiy soʻz ekanini, XIII asrda rus tiliga oʻzlashganini, shu bilan birga, turkman tilida **davar**, tatar tilida **tuvar** ekanini qayd etadi. Tilshunos N. Shanskiy **tovarish** soʻziga toʻxtalib, uning yasama ekanini, yaʼni **tovar** soʻziga + **ish (esh)** soʻzining qoʻshilishidan hosil boʻlganini, dastlab “savdodagi sherik” maʼnosida qoʻllanganini bayon qiladi (444-b.).

YOGURT

Albatta, har qanday leksema biror tilga oʻzlashgach, oʻsha tilning tabiatiga moslashadi. Keyingi paytlarda yogurt leksemasi “кислое молоко” maʼnosida Rossiya televideniyesida tez-tez reklama qilinmoqda. Ushbu leksemaning etimologiyasi bilan qiziqib, manbalarga murojaat qilganimizda, bunga ham javob topildi.

“Devonu lugʻoti-t-turk” asarida yogurt (III, 179-b.) leksemasi qatiq (кислое молоко) maʼnosida mavjud ekan. Fikrimizni turkolog olim E. Sevortyaning “Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке” nomli kitobidan olingan quyidagi iqtibos ham tasdiqlaydi: “Со значением объекта – jogʻurd “кислое молоко” от jogʻur – “замешивать”, “месит” (тесто)”, то же значением в турецком joğurd; со значением результата – гуруд// гурут “высущенные шарики из процеженного кислого молока” от гуру – “сохнут”, турецкий курут “высушенное кислое молоко”, в таком же значении...” (E. Sevortyan, Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. 1966. с.5).

Rus tilshunosi E. Magazanik turk tilida ham jogurd soʻzi aynan кислое молоко maʼnosida mavjudligini aytsa, D. Ushakov bulgʻor tilida ham yogurt leksemasi xuddi shu maʼnoda ishlatilishini taʼkidlaydi.

Shu oʻrinda tilshunos E. Shipovanning quyidagi fikrlari eʼtiborimizni tortadi: “Yogurt” soʻzi turkiy tilda shu qadar keng yoyilganki, ularning aynan qaysi biridan rus tiliga oʻzlashganini aniqlash qiyin.

Bunday asoslarni yana oʻnlab ilmiy manbalardan keltirish mumkin.

Leksemalarning etimonini aniqlash bilan tilshunoslikning etimologiya boʻlimi shugʻullanadi. Bunday tadqiqot natijalari leksemalarning etimologik maʼnolarini aniqlashda, etimologik lugʻatlar tuzishda ahamiyatlidir.

Qolaversa, keltirilgan misollarning umumturkiy ekanini hamma ham bilavermaydi, zero til tarixini bilish millat tarixini bilish ekanini unutmasligimiz kerak.

Hamid YODGOROV,
Davlat tilida ish yuritish
asoslarini oʻqitish va
malaka oshirish markazining
Sirdaryo viloyati
hududiy boʻlinmasi rahbari

MANBA	TAVSIFI
E.N. Shipova (1976)	“Словарь тюркизов в русском языке” – 2 000 ga yaqin turkiy oʻzlashma.
N. Shanskiy (1975)	“Краткий этимологический словарь русского языка” – “tovar” turkiy ildizga ega.
Mahmud Koshgʻariy	“Devonu lugʻoti-t-turk” – “tovar”, “yogurt” soʻzlari turkiy tilga xos.
E. Sevortyan	“Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке” – “yogurd” etimologiyasi.

TOMA-TOMA KO'L BO'LAR

Yaqinda bir ajib holat bo'ldi deng. Biroq bu birinchisi emas edi. Avval ham shunga o'xshash chaqqonlikning "qurboni" bo'lgandim. Faqat e'tibor bermagan ekanman-da.

Qisqasi, shahardagi mashhur bir tibbiyot muassasasidagi (*xususiy*) apparatga tushish uchun tanishimni olib bordim. Avval belgilangan to'lovni amalga oshirdik. Summa miqdori qariyb 600 mingni tashkil etdi. Pul plastik kartadan to'landi. Kassir ko'zlarini o'ynatib, chek berdi. Raqamlar ketma-ketligi tushirilgan parcha qog'ozni sovuqqonlik bilan olib, cho'ntakka soldim. Keyin ishlarni amalga oshirdim: navbatga turdik, so'ng aytilgan uskunaning muhim xulosalarini olib, uyga qaytdik. Ha, hammasi joyida ekan.

Yo'l-yo'lakay o'sha raqamlar jamlanmasi – parcha esimga tushib qoldi. Qo'l telefonimni shartta oldim-da, "Solig" ilovasini ochib, qog'ozni skaner qildim. Keshbek olmoqchi edim-da. Ammo dastur "Ushbu chekni avval ro'yxatdan o'tkazgansiz", deb ma'lumot berib qoldi. Shunda kimdir yuzimga shapaloq tortib yuborgandek, tebranib ketdim. Chunki bunday bo'lishini kutmagandim. Qoshlarimni qattiq chimirib, o'zga tolgancha o'zimga o'zim pichirlab, savol bera boshladim:

– Haqiqatan ham, chekni avval ro'yxatdan o'tkazib, yana shu ishni takror qilayotgan bo'lsam, a? Eh, xumpar. Nahotki, shu darajaga yetding? Namuncha diqqatsizsan? Esipast, dovdur, unutib qo'yadigan odat ham chiqardingmi? Shu yoshda-ya! Bular haqida kimgadir ayta ko'rma! Kulgi bo'lasan. Lekin shunga munosib ham sanda...

Xayollarim uchdi-uchdi. So'ng adog'i yo'q bo'shliqqa tushdim-qoldim. Hamma tomonimda plastik karta solingan apparatdan chiqib kelayotgan bo'm-bo'sh oq qog'ozlar uchib yuribdi.

– Keshbekni ol, yo'q! – deydi notanish ovoz quloqlarim ostidan yoqimsiz chiyillab. – Yo'q, ololmayсан!

Tirmashib, ingrab qo'l uzataman-u, biroq ularni tutolmayman. Ko'rinmas kimsa, hammasini – katta-katta raqamdagi "imkoniyat"larimni hovuchlab-hovuchlab og'ziga shoshmay, olayib, o'qrayib solyapti. Ko'rib turibman. Ko'zlarim yutinayotgan kekirdakka qattiq qadalgan.

Keyin boshimning ikki chekkasida filni quloqlaridek osilib turgan quloqlarim shang'illab qoldi. Boyagi ovozlari tamoman o'chdi. Jim o'tirib, hammasini – tibbiyot muassasasining eshigidan kirishimdan tortib, qaytib u yerdan chiqib ketganchalik vaqtini birma-bir xayolimda jonlantirdim. Voqealarni aniq-tiniq eslayapman-u, lekin bu qurg'ur qog'ozdagi "axcha"ni qachon qaytarib olganimni bilolmayapman. Yo'q, vahima qilmayapman. Shunchaki, qo'l urmagan ishimni avval qilgansan, degan katta ayblovdan "oqlanib" chiqishni istayotgandim. Qolaversa, bu go'yo yemagan somsaga pul to'lashdek gap axir.

Qisqasi, miyam g'ovlab ketdi. Yana o'ylayverdim-o'ylayverdim... Hey, mendan kulmang! Hammasi qiziqish va ichki ixtiyor bilan bog'liq kechinmalar bular. Va yana 1 foiz bo'lsa ham, qilingan xarajatni

eson-omon ortga qaytarish ishtiyoqi. Emishki, haqqimiz o'zgalar qo'lida – egasini topolmay, kaminaga yetib kelmay, sarson-sargardon bo'lmasin. Tushunyapsizmi? Qolaversa, QR kod ostidagi "Siz xaridning 1 foiz miqdorida keshbek olish huquqiga ega bo'ldingiz!" degan yozuvga allaqachon inonib qolgandim.

Izlagan imkon topar deganlaridek, oqara boshlagan sochlarimni yulib-yulib, xo'mrayib-xo'mrayib kalavaning uchini axiri tutib oldim. Xullas, kaminadan oldin haligi "apparat" (*chek chiqarib beradigan qurilma*) chaqqonlik qilib, luqmamni o'ziga olib qolibdi. Buni qanday amalga oshirgan, buyog'i biz g'arib-u bechoraga noma'lum. Sababi iqtisodchi emasmiz va yana buxgalteriyadan ham mutlaqo xabarimiz ham yo'q. Lekin bir narsa aniqki, bu jarayon chuqur va puxta o'ylangan. Qolaversa, tavakkalchilik ham qilingan.

To'g'ri aytasiz, yurak ham bor ekan-da ularda. Yo'qsa, uncha-buncha odam bu kabi ishga qo'l urmagan bo'lardi. Shaxsan men qilolmayman. Aqlim yetmaydi. Ha, esipastroq odamman. Tan olayapman-da. Bo'lmasa, bu gaplarni sizga aytib, vaqtingizni olib o'tirardim. Shunchaki "chaqqonlik" qilib, cho'ntagingizga qo'l tiqardim-u, ishimni bitirardim. Uzr, chalg'idim.

Shunday qilib, ko'z tikkan "tomchi" mni hech kimga sezdirmay, ko'zlarimga tik qarab va tag'in muloyimlik, yuqori ehtirom ila o'zlariga olib qolibdi shovvolar. Qiziq holat, shundaymi?

Ha, endi muassasaga kunida o'nlab, balki undan ham ko'proq bemor (*albatta, o'z xohishlariga ko'ra*) murojaat etadi, keladi. Shundoq ekan, chaqqon "apparat"lar tayyor "tomchi"ni qovjiragan va ado bo'lgan yerga shunchaki oqizib yuborarmidi? Aslo-da. Shunchaki biroz miyani ishlatib, ko'zni chalg'itib – tizimni aldab, qonunchilikdagi me'yorlarni aylanib o'tib, hammasini xamirdan qil sug'urgandek silliq bajarib kelaveradi. Va o'sha 1 foiz ham o'z-o'ziga qoladi. Tasavvur qiling va o'tirib, erinmasdan hisoblab ko'ring-chi?

Aslida bu aytiladigan muammo ham emasdir. Lekin tanganing ikkinchi tomoni borki, undan aslo yuz o'girib bo'lmaydi. Ya'ni beparvolik. Duch kelingan xatolarni tuzatish, aytish o'niga uni aylanib o'tib, jim yurish, tilni tishlash, ko'z yumish va yana bu mening vazifamga kirmaydi, deb panja ortidan qarash, qo'l siltash masalaning shardek shishishiga olib keladi. Keyin u vaqt o'tib, xuddi ilgagi keraksiz vaqtda tortilgan granatadek portlaydi. Oskolkalar esa aybsizlarni jarohatlaydi – jigarini yaralaydi.

Xullasi kalom, toma-toma ko'l bo'lar, deganlaridek, ayrim "apparat"lar cheklarni qup-quruq qilib chiqarib, xotirjam siz-u bizga beryapti.

Aytgancha, ehtimol o'zingizda ham shunga o'xshash holat bo'lgandir? Faqat e'tibor bermagandirsiz-da, akasi.



Boks



Muallif suratga olgan



KUCH, MAHORAT va raqobat maydoni

Olimpiya shaharchasida joylashgan “Yakkakurashlar” arenasida kattalar oʻrtasida boks boʻyicha Oʻzbekiston chempionati muvaffaqiyatli yakunlandi. Mazkur nufuzli musobaqa mamlakatimizda boks sportining bugungi holati, uning rivojlanish surʼati va kelgusi istiqbollari haqida atroflicha xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Mazkur chempionatda Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri, barcha viloyatlar hamda ixtisoslashtirilgan sport maktablari va markazlaridan eng kuchli bokschilar ishtirok etdi. Oʻnta vazn toifasida tashkil etilgan bellashuvlar shiddatli va murakkab kechib, har bir jang gʻalabaga boʻlgan intilish, yuksak jismoniy tayyorgarlik va ruhiy barqarorlik talab etdi.

Ayniqsa, musobaqaning tashkiliy jihatdan puxta oʻtkazilgani eʼtiborga molik boʻldi. Halol va xolis hakamlilik, tibbiy xizmatning doimiy nazorati, xavfsizlik choralarining toʻliq taʼminlanishi hamda tomoshabinlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar chempionatning yuqori saviyada oʻtganini koʻrsatdi. Bu esa mamlakatimizda sport musobaqalarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish borasida toʻplangan tajribaning samarasidir.

Chempionat natijalariga nazar tashlar ekanmiz, jamoaviy hisobda Mudofaa vazirligi sportchilari yetakchilikni qoʻlga kiritganini alohida taʼkidlash lozim. Ushbu jamoa vakillarining koʻplab vazn toifalarida gʻalaba qozonishi harbiy xizmat bilan sportni uygʻun ravishda olib borish mumkinligini yana bir bor isbotladi. Qurolli Kuchlar tizimida sportga qaratilayotgan yuksak eʼtibor, mustahkam moddiy-texnik baza va malakali murabbiylar faoliyati bu natijalarning asosiy omillaridan biri boʻldi.

Ayollar oʻrtasida 48 kg vazn toifasida Qurolli Kuchlar xizmatchisi Farzona Fozilova, 60 kg vazn toifasida esa kichik serjant Sitara Turdibekovaning ishonchli gʻalabasi xotin-qizlar boks mamlakatimizda izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ular koʻrsatgan texnik va taktik tayyorgarlik xalqaro musobaqalarda ham munosib ishtirok etish imkoniyati borligini namoyon qildi.

Erkaklar oʻrtasida esa deyarli har bir vazn toifasida raqobat oʻta keskin kechdi.

Xususan, 55 kg vazn toifasida chempion boʻlgan Samandar Olimov nafaqat ushbu musobaqaning, balki kelgusida milliy terma jamoaning asosiy tayanchlaridan biri boʻlishi mumkinligini isbotladi. Shuningdek, 60 kg vaznda Abdurahmon Mahmudjonov, 65 kg vaznda KBHX, oddiy askar Atham Muhitdinov, 75 kg vaznda Javohir Abdurahimov, 80 kg vaznda Rahmatullo Boymatov, 90 kg vaznda Madyar Saydrahimov va +90 kg vaznda Jahongir Zokirovning gʻalabalari oʻz vazn toifalarida kuchlar nisbati qay darajada oʻsganini koʻrsatdi.

Anʼanaviy ravishda musobaqaning eng yaxshilari ham aniqlandi. “Eng yaxshi ayol bokschi” nominatsiyasiga sazovor boʻlgan Aziza Zokirova chempionat davomida barcha raqibalarini ochiq ustunlik bilan magʻlub etib, yuksak texnika, aniq zarbalar va jangni nazorat qila olish qobiliyatiga egaligini namoyon etdi.

“Eng yaxshi erkak bokschi” deb topilgan Samandar Olimov esa tezkorligi, ringdagi fikrlash tezligi va jang davomida vaziyatni toʻgʻri baholay olishi bilan mutaxassislar eʼtiborini tortdi. Uning chiqishlari yosh bokschilar uchun oʻrnak boʻlishi shubhasiz.


Jamoaviy natijalarga koʻra, “Eng yaxshi terma jamoa” nominatsiyasining Mudofaa vazirligi jamoasiga topshirilishi tasodifiy emas. Fargʻona viloyati jamoasining ikkinchi oʻrinni egallashi va Samarqand viloyati jamoasining kuchli uchlikka kirishi hududlarda boks maktablari samarali faoliyat olib borayotganini koʻrsatadi.

Umuman olganda, boks boʻyicha Oʻzbekiston chempionati mamlakatimizda mazkur sport turi yangi bosqichga koʻtarilayotganini, milliy terma jamoa uchun mustahkam zaxira shakllanayotganini hamda xalqaro maydonlarda munosib ishtirok etish uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligini yana bir bor tasdiqladi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



Meros



TURKISTON

jadidlarining rahnamosi

Yaqinda ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, ijodi, faoliyati, sahnalashtirgan asarlari hamda adib yashagan davr haqida qimmatli ma'lumotlarni yaqindan o'rganish maqsadida Samarqand shahriga yo'l oldik.

Safar manzili ko'hna shahardagi Mir Said Baraka ko'chasida joylashgan Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi. Uy-muzey katalogi va unga kiritilgan eksponatlar tarixchilar, muzeysunos, san'atshunos olimlar hamda keng jamoatchilik uchun muhim manba sanaladi. Tom ma'noda aytish mumkinki, Behbudiy Samarqandda o'ziga xos ilmiy-ma'rifiy muhit yaratgan va "Turkiston jadidlarining otasi" degan nomga sazovor bo'lgan.

Muzey katalogida va saqlanayotgan eksponatlarda Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi mahallalarda yangi maktablar tashkil etilgani haqidagi ma'lumotlar bor. Mazkur ekspozitsiyada Behbudiy bilan bir davrda ijod qilgan jadidlarning asarlari ham o'rin olgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek jadidlik harakatining yetakchilaridan biri bo'lib, ma'rifatparvarlik,

millatparvarlik faoliyati, dinni yaxshi bilishi, dunyoqarashining kengligi, vatanparvarligi bilan tarix zarvarlarida alohida o'rin tutadi. U ta'limni ijtimoiy taraqqiyot va madaniy yuksalishning asosiy omili sifatida e'tirof etgan. Yangi usuldagi maktablarni tashkil etish va zamonaviy bilimlarni tarqatishga katta hissa qo'shgan ustoz sanaladi.

Dilnavoz RIZAYEVA,
O'zJOKU talabasi

Hayot gultoji

Oila – bu devorlar bilan o'ralgan makon emas. Oila nafas olayotgan qalblar, sukutda ham eshitiladigan hislar, bir qarash bilan anglashiladigan dardlar majmuasidir. Ayol uchun esa oila – butun umr davom etadigan mas'uliyatli sayohat.

AYOL

qalbidan boshlanadigan baxt



Inson birinchi bor mehmni qayerda his qiladi? Albatta, oilada. Ilk so'z, ilk ko'zyoshi, ilk ishonch – barchasi shu muqaddas makonda shakllanadi. Shu bois oila ayol uchun ham, jamiyat uchun ham tarbiya maskani, ma'naviy poydevordir.

Bugun biz oila haqida ko'p gapiramiz. Lekin uning ichida kechayotgan sukutlar, aytib bo'lmas alamlar, ko'zga ko'rinmas kurashlar haqida kam o'ylaymiz. So'nggi vaqtlarda yurtimizda oila deb atalmish qo'rg'onning parokandalikka yuz tutib,

ajrimlar soni ortib borayotgani haqidagi statistik xabarlariga ko'zimiz tushmoqda. Shu o'rinda bir muammo o'rta tashlanadi: er-xotin o'rtasidagi begonalik – zamon muammosimi yoki e'tiborsiz qolgan qadriyatlar natijasimi?

Ko'p hollarda ayoldan sabr talab qilinadi. Sabr qil, ko'nik, kechir... Ammo ayol ham inson. Uning ham mehrga, so'zga, e'tiborga ehtiyoji bor. Ayol qalbi – eng nozik mezon. Uni e'tiborsizlik bilan sindirish oson, ammo tiklash juda qiyin.

Oilada er va xotinning vazifalari bor, albatta. Er – tayanch, xotin – muhit. Er moddiy barqarorlikni ta'minlasa, ayol ma'naviy iqlimni yaratadi. Uyda qanday ruh hukm surayotgani ko'pincha ayol kayfiyati, uning ruhiy holati bilan belgilanadi. Shu bois "baxtli oila" degan tushuncha ko'pincha baxtli ayoldan boshlanadi.

Jahon adabiyotida ham ayol taqdiriga beparvo qaralmagan. Chingiz Aytmatovning "Jamila" asaridagi ayol

obrazi muhabbatga, e'tiborga tashna qalb timsolidir. Jamila gunohkor sifatida emas, inson sifatida tasvirlanadi. Uning tanlovi jamiyat mezonlariga zid bo'lsa-da, qalb ehtiyojiga mos edi. Bu bizga bir haqiqatni eslatadi: muhabbat majburiyat bilan emas, his bilan yashaydi.

Ayolni faqat "uy bekasi", "sabrli kelin", "qanoatli xotin" degan qoliplarga solib qo'yish uning tabiatiga qarshi borishdir. Ayol – bo'lajak ona, tarbiyachi, hamroh, ruhiy suyanch. Uning har bir harakati, har bir sukuti farzand qalbidan iz qoldiradi.

Rivoyatlarda ham ayol donoligi ko'p bor xalq taqdirini hal qilgan. Qoraqalpog' qizi Bibioysa haqidagi rivoyat bunga yorqin misol. Uning jasorati, erga sadoqati va qaror qabul qilishdagi qat'iyati nafaqat bir oilani, balki butun elni asrab qolgan. Hattoki, uning aqliga mo'g'ul hukmdori ham tan beradi. Bu ayol aqli va qalbi qudratining ramzidir.

Xulosa shuki, oila mustahkamligi faqat burch va qoida bilan emas, anglash va his qilish bilan barpo etiladi. Er ham, xotin ham bir-birini ayblashdan oldin tinglashni, ko'rishni, his qilishni o'rgansa, oila darz ketmaydi.

Baxt tayyor holda berilmaydi. Uni har kuni ayol mehri, er e'tibori, ikki tomonning sabri bilan qayta-qayta yaratishga to'g'ri keladi. Va shu mehnatning eng nozik, eng mas'uliyatli qismi ko'pincha ayol qalbi zimmasida bo'ladi.

Shohista ABDURAHMONOVA,
jurnalist

SUVCHECHAK

KASALLIGI

PROFILAKTIKASI

Suvchechak o'tkir yuqumli virusli kasallik bo'lib, asosan yosh bolalarda uchraydi, lekin ushbu xastalik bilan kattalar ham og'rishi mumkin. Suvchechak bilan kasallanish dunyoda keng tarqalgan bo'lib, gripp va o'tkir respirator kasalliklaridan keyingi o'rinni egallaydi. Kasallik qishloq joylardan ko'ra, shahar sharoitida tez tarqaladi. Suvchechak qo'zg'atuvchisi 1911-yilda A. Aragao tomonidan aniqlanib, fanda "Aragao tanachalari" nomini olgan.

Boshqa havo-tomchi orqali yuquvchi infeksiyalardan farqli o'laroq, suvchechak qo'zg'atuvchisi bemordan ancha uzoq masofaga ham tarqaladi. Virusning havo oqimi bilan qo'shni xonalarga osonlik bilan o'tishi tufayli qo'shni xonadagi insonlarga ham kasallik yuqishi mumkin. Suvchechak bilan kasallanishda mavsumiylik kuzatiladi. Aholi o'rtasida kasallanish darajasi asosan yilning sovuq mavsumida ortadi.

Kasallanishning eng past ko'rsatkichlari yilning avgust-dekabr oylariga to'g'ri kelsa, fevral-may oylarida bu ko'rsatkichlar ko'tarilib boradi va aprel oyida eng yuqori nuqtasiga yetadi. Umuman olganda, kasallikning eng yirik mavsumiy tebranishlari iliq geografik hududlarga to'g'ri keladi. Virus tashqi muhit ta'siriga chidamsizligiga qaramasdan, nisbatan katta masofaga tarqalishi va uyushgan jamoalarda (*bolalar bog'chalari, o'quv yurtlari, harbiy qism*) epidemiya tarzida tarqalishi mumkin. Qo'zg'atuvchining tarqalish mexanizmining nihoyatda faolligi va maxsus profilaktika usullarini deyarli qo'llab bo'lmasligi sababli

suvchechak boshqarib bo'lmaydigan yuqumli kasalliklar toifasiga kiradi. Shuning uchun epidemiologik nazoratning asosiy maqsadi mahalliy aholi o'rtasida kasallanish darajasi haqida yetarlicha ma'lumotlarni to'plash va muayyan sharoitlarda shaxsiy tarkib orasida kasallanishning oldini olishga qaratilgan zarur choratadbirlarni rejalashtirish hisoblanadi. Suvchechakning yagona infeksiya manbai bemor odam hisoblanadi.

Bemor kasallik boshlangan kunlari atrofdegilar uchun xavfli hisoblanadi, teriga toshmalar toshgandan so'ng esa bemor kasallik manbai sifatida xavf tug'dirmaydi. Suvchechakning bemordan sog'lom odamga yuqish jarayoni havo-tomchi yo'li orqali ro'y beradi. Bemor bilan sog'lom odamning bir xonada qisqa fursat ichida bo'lishi, kasallik yuqishi uchun kifoyadir. Kasallik yuqqandan so'ng uning belgilari ro'yobga chiqquncha bo'lgan davr, ya'ni yashirin davri o'rtacha 14-17 kunni tashkil qiladi. Suvchechak kasalligiga tana haroratining ko'tarilishi va terida yaqqol chegaralangan qizg'ish dog' va pufakchali toshmalar toshishi xosdir.

Infeksiyaning kirish darvozasi yuqori nafas yo'llari shilliq pardasi hisoblanadi, kasallik qo'zg'atuvchisi bu yerdan qonga o'tadi va teriga o'rnashadi. Kasallikning birinchi kunlaridanoq tananing qorin, son, yelka, yuz va bosh sohasi terisining yuqori qavatida dog'lar paydo bo'ladi. Tana harorati 38° va undan ham yuqori bo'lgandan keyin dog'lar toshmalarga va ular esa pufakchalarga aylanadi. Oradan 1-2 kun o'tgach pufakchalar yorilib, yarachalar paydo bo'ladi. Bemorni, ayniqsa teri qichishi bezovta qiladi. Ayrim bemorlarda, toshmaning og'iz shilliq pardasiga, halqumga, hiqildoqqa, jinsiy a'zolariga va tananing boshqa joylariga toshishi juda noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Tana harorati ko'tarilishi bemor ahvolidan og'irlashishiga olib keladi, uyqu buziladi, ishtaha pasayadi, jahldor va injiq bo'lib qoladi. O'z vaqtida ko'rilgan davo choralari natijasida tana haroratining yuqoriligi 2-5 kungacha davom etadi, tanadagi toshmalar esa 8-10 kunda asta-sekin yo'qoladi.

Suvchechak ko'pincha yengil ko'rinishda va asoratsiz kechadi, lekin immuniteti past bo'lgan shaxslarda tana haroratining ko'tarilishi bemor ahvoli og'irlashuviga olib keladi. Xastalik og'ir kechganda ko'pincha terida, og'iz bo'shlig'ida, tomoqda, quloqda, o'pkada va buyrakda har xil asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bemor barvaqt aniqlanib, kasalxona

sharoitida samarali davolansa, xastalik asoratlarning oldi olinadi. Suvchechak kasalligi yangi tug'ilgan chaqaloqlar, homiladorlarda, keksalarda va saraton kasalligi mavjud bo'lganlarda og'ir o'tadi. Kasallikdan tuzalgan kishilarda bir umrga barqaror immunitet hosil bo'ladi. Bemorni o'z vaqtida aniqlash va alohidalash, umumiy va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, xonalarni tez-tez shamollatib turish va xona havosini ultrabinafsha nurlatgich yordamida dezinfeksiya qilish havodagi kasallik qo'zg'atuvchilarini bartaraf etadi.

Bemor bilan muloqotda bo'lganlar 21 kun mobaynida tibbiy nazoratga olinadi, bu davrda ularning sog'lig'idan shikoyati so'rab-surishtiriladi, tana harorati o'lchanib, ko'rikdan o'tkaziladi.

Mahalliy aholi o'rtasida kasallanish darajasi haqida yetarlicha ma'lumotlarni to'plash va muayyan sharoitlarda kasallanishning oldini olishga qaratilgan zarur choratadbirlarni rejalashtirish orqali harbiy jamoalar o'rtasida kasallik kelib chiqishining oldini oladi.

Tibbiy xizmat katta leytenanti
F. NIYOZOV,
Qurolli Kuchlar xizmatchisi
B. AHMEDOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi mutaxassislari



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

YOSHLARGA E'TIBOR

Yoshlarimiz qalbidagi vatanparvarlik hissini yuksaltirish hamda mustahkamlash buyuk kelajagimizni barpo etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, bu muhim vazifaga O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Kattaqo'rg'on tumani o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.



Chunonchi, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar shular jumlasidandir.

– Bugungi kunda o'quv sport-texnika markazimiz tomonidan Kattaqo'rg'on tumani hokimligi, mudofaa ishlari hamda maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa ko'plab tashkilotlar bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik targ'iboti va foydali tadbirlar o'tkazildi. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish maqsadida tumandagi 16-umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida sportning texnik va amaliy turlaridan musobaqalar tashkil etildi. Bundan ko'zlangan asosiy

maqsad yoshlarni imkon qadar sport to'garaklariga jalb etish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda nufuzli musobaqalarda ularning faol ishtirokini ta'minlashdir.

Bundan tashqari, markazda haydovchilik kurslarida ta'lim olayotgan yoshlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, muntazam ravishda o'quv mashg'ulotlari va sport to'garaklariga jalb etilmoqda. Natijada sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to'garaklari ishini yo'lga qo'yish, sport musobaqalarini tashkil etishda muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Bu esa, o'z

navbatida, tuman terma jamoasini shakllantirish hamda ularning viloyat va respublika musobaqalarida ishtiroki sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu kunlarda o'ttiz nafardan ziyod o'smir "Havo multig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon" kabi sport to'garaklariga jalb qilingan. Ular bilan doimiy ravishda tajribali sport murabbiylari mashg'ulot olib boradi. Bu esa sportchi yoshlarning muntazam shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratmoqda.

Tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri malakali haydovchi mutaxassislarini tayyorlashdir. O'tgan yili besh yuz nafarga yaqin "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlandi. Shuningdek, haydovchilarni qayta tayyorlash va traktorchilar tayyorlash ishlari ham muvaffaqiyat bilan uddalandi.

Ayni kunlarda ham bir necha guruhlarda tinglovchilar o'zlari xohlagan toifalar bo'yicha o'qishni davom ettirmoqda. Buning uchun tashkilotda bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda barcha zarur sharoitlar yaratilgan.

Akbar ALLAMURODOV

Ellikqal’a tumani qadimiy qal’alari bilan mashhur. Ming asrlardan buyon saqlanib kelinayotgan bu yodgorliklar tumanni turistik hudud sifatida tanitib kelmoqda. Ammo bu diyorni qadrli qiladigan yana bir jihat bor — ustoz xotirasiga bo’lgan ehtirom.

Tuman markazida o’qituvchi haykali o’rnatilgan. Unda bir qo’lida kitob tutgan, ikkinchi qo’li bilan papka ko’targan o’quvchining yelkasidan ushlab turgan muallim tasvirlangan. Bu tasvir o’qituvchining shogirdini hayotga, kelajakka yetaklashini anglatadi.

Mazkur haykal urganchlik shoir Matnazar Abdulhakimning birinchi ustoz xotirasiga bag’ishlab yozilgan “Darsdan so’ng” she’ri asosida bunyod etilgan.

She’rda qishloq maktablaridan birida dars bergan o’qituvchining fojiali qismati tasvirlanadi. U olis qirlardan qatnab, bolalarga ta’lim berar edi. Bir kuni o’quvchilarga insho yozishni topshiradi. Biroq yetti nafar bola berilgan vazifani bajarishga ulgurmaydi. Kun qorong’iga yaqinlashgani sabab o’qituvchi bolalarga javob beradi va hamkasbining “Tunab keting, kech bo’lib qoldi”, degan taklifiga qaramay, uyga otlanadi.

Yo’lda u och yirtqich bo’riga duch keladi. Qutulish uchun qo’lidagi o’quvchilar daftarlarini navbatma-navbat yoqib, qishloqqa yetib olishga harakat qiladi. Ammo daftarlar tugaydi. O’qituvchi esa qishloqqa yetolmaydi.

Ertalab bu xabar butun qishloqqa tarqaladi.

Matnazar Abdulhakim ushbu she’rda o’sha insho yozmagan yetti nafar bola orasida o’zi ham borligini qayd etadi. Va umr bo’yi o’ziga bir savolni beradi: “Agar insho yozilganida, o’qituvchim omon qolarmidi?”

Har yili 1-oktabr – O’qituvchi va murabbiylar kunida ushbu haykal qoshida xotira tadbirlari o’tkaziladi. Fidoyi o’qituvchi yodga olinadi, uning mehnati va jasoratiga hurmat ko’rsatiladi.

Bu haykal – o’qituvchilik kasbining mas’uliyati, fidoyiligi va inson taqdiri bilan bog’liq og’ir haqiqatlarni eslatib turadigan sukutdagi da’vatdir.

Shohista ABDURAHMONOVA



USTOZGA
EHTIROM

Darsdan so’ng

Kimnidir koyidi chekkani uchun,
Tortib olib qo’ydi gugurtini ham.
Mashq daftarlarini yig’di-da, so’ngra,
Bir-bir sanab ko’rdi. Yetti daftar kam.

“Har gal shunday ahvol. Uyalmay sizmi?
Kelasiz o’qishmas, qilish uchun sayr.
Bu safar ham ikki qo’ymay turaman,
Ertaga qolganlar topshirsinar. Xayr”.

Qish kuni – bir tutam. Qoraygandi qosh,
Ikkilandi. O’tmak kerak, axir, qirdan.
Eri ham kelmadi olib ketishga,
“Ko’ngli sovidimi...” – vahm etdi birdan.

Hamkasb dugonasi qistovga tutib,
“Tunab keting, – dedi. – Kech bo’lib qoldi”.
Ko’nmadi. Qo’ltiq lab mashq daftarlarni,
Uyga yolg’iz o’zi yayov yo’l oldi.

Ovul tugab, endi qirga chiqqanda,
Oqshom quyuv edi, atrof sim-siyoh.
Yo’ldan qaytmoqchi ham bo’ldi bir o’yi.
“O’g’lim xastalanib qoldimikan yo...”.

Yuragini battar vahima bosdi,
Qamradi tundan ham battar bir qo’rquv.
O’nqirmi, cho’nqirmi, o’rmi, qir demay,
Yana ketaverdi, ketaverdi u.

Mudhish bir sharpani ilg’adi nogoh,
Razm solsa qashqir. Qilardi ta’qib,
Esladi yirtqichning qo’rqishin o’tan,
Iziga bir daftar tashladi yoqib.

Qashqir to’xtab qoldi. So’ng – yana, yana,
Muallima omon topgan bu olov,
Yirtqichga berardi ilolsiz sabr.
Yo’lovchi – yoqardi, qashqir – to’xtardi,
Tin olardi ikkov har daftarda bir.

Yo’l uzoq, tun qaro, qashqir esa och,
Och yirtqich bilarmi nadir sadoqat.
Uyga yaqin qolgan vaqtda tugadi,
Muallimda daftar, qashqirda – toqat.

Uvvos fig’on tutdi qishloqni tongda,
Zamin aza ochdi, zamon yig’ladi.
Daftar topshirmagan yetti o’quvchi
Hammadan ham yomon yig’ladi.

No’noq nazmim uchun afv et, xalqim,
Na olim, na fozil, na so’z piriman.
O’z vaqtida daftar topshira olmay,
Qolgan bolalarning biriman.

Men yaxshi bilaman, tumor qilmaydi,
Yozgan she’rlarimni oshiqlar.
Men yaxshi bilaman, qo’shiqlarim jo’n,
Bilaman, bular bir oddiy mashqlar.

Lekin... ketmakdasan kelajak sari,
Tap tortmay qismatning dasht, qirlaridan.
O’zimcha asragim keladi seni,
Yovuzlik, xiyonat qashqirlaridan.

Men mashq bajaraman, yozaman har kun,
Daraklar, so’roqlar, xitoblarimni.
... Sen yo’l bo’yi yoqib tashlab ketaver,
Qashqirlar qo’rquvchi kitoblarimni.

Matnazar ABDULHAKIM



MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:

ko‘tibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro‘ziqulov

Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev

Musahhih: Sayyora Meliqo‘ziyeva

Buyurtma: 219

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 350 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Muruvvatli-dil press” MChJ mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko’rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

“Muruvvatli-dil press” MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri

Chilonzor tumani “Nafosat” MFY Qatortol

ko’chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag’bon ko’chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan
tahririyati bilan bog’lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya